

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix fakulteti

“O‘zbekiston tarixi” kafedrası

Davlatov Nuriddin Doniyorovich

Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-
iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti.

5220200 – Tarix bakalavriat ta’lim yo‘nalishi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar

o‘qituvchi. Irisqulov O.J.

SAMARQAND - 2016

Mundarija:

Kirish.

I bob. Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.

1.1. Qashqadaryo viloyatida sanoat korxonalarining faoliyati hamda neft va gaz sanoatining rivoji.

1.2. Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlar va ularning natijalari.

II bob. Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatining demografik holati va madaniy hayoti.

2.1. Qashqadaryo viloyatining demografik holati va mustaqillik yillarida unda sodir bo'lgan o'zgarishlar.

2.2. Qashqadaryo viloyati madaniy hayoti hamda ta'lim va sport sohasining rivoji.

Xulosa.

Adabiyotlar ro'yxati.

Kirish

Mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini mintaqaviy jihatdan oqilona joylashtirish mintaqaviy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mintaqalar o‘zlarining geografik va ishlab chiqaruvchi kuchlarining joylashuvi, tabiiy-iqtisodiy salohiyatlari bilan bir-biridan ajralib turadi. Tabiiy-iqtisodiy salohiyat mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Binobarin, mintaqalar tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta‘minlash, aholi turmush darajasini oshirishning muhim shartlaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek: ”O‘zbekiston jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallash, o‘z xalqining tinchligi va farovonligini ta‘minlashga intilayotgan boshqa davlatlar qatori hozirgi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan murakkab davr o‘rtaga qo‘yayotgan talab va savollarga to‘liq javob beradigan, aniq va ravshan, har tomonlama puxta o‘ylangan strategiya va o‘z harakat dasturiga ega bo‘lishi zarurligini hayotning o‘zi taqozo etmoqda”¹. Bu fikrlar Respublika mintaqalariga ham tegishli bo‘lib, ular manfaatlarining o‘zaro uyg‘unlashuvini ta‘minlaydigan, mavjud tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlarni hisobga oladigan iqtisodiyotni oqilona tarkibini shakllantirishga qaratilgan strategiyani ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifasi ekanligini isbotlaydi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda iqtisodiyotning mintaqaviy tarkibini shakllantirish hamda ularning salohiyatidan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va davlat tomonidan tartibga solish bo‘yicha qator tadbirlar amalga oshirildi. Mamlakatimizda aksariyat mintaqalarning mavjud salohiyatlarini hisobga olgan holda, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy strategik rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilmagan. Yirik tabiiy-iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lgan Qashqadaryo viloyatining uzoq muddatga mo‘ljallangan strategik

¹ Karimov I.A. O‘zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li. Toshkent, “O‘zbekiston” 2007..43 b.

yoʻnalishlarini ishlab chiqish ham davr talabi boʻlib qolmoqda. Katta tabiiy-iqtisodiy salohiyatining mavjudligiga qaramasdan, viloyatda aholi turmush darajasi koʻrsatkichlari past. Shu boisdan viloyatning tabiiy-iqtisodiy salohiyatini barqaror iqtisodiy rivojlantirish dasturi bilan oʻzaro majmuaviy bogʻlash zarur vazifadir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Qashqadaryo viloyatida barqaror iqtisodiy oʻsishga erishish uchun mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatni hisobga olgan holda samarali iqtisodiy rivojlanish strategiyasi va uni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot maqsadi sanoat korxonalarini oqilona joylashtirish va rivojlantirish muammolarini mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati bilan bogʻliq holda oʻrganishdan iborat.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifalarni hal etish koʻzda tutilgan:

- sanoatni tarmoqlarini joylashtirishning oʻziga xos xususiyatlari va usullarini aniqlash;
- mustaqillik yillarida Oʻzbekiston mintaqalari sanoatida roʻy bergan tarkibiy oʻzgarishlarga baho berish;
- Qashqadaryo viloyati sanoat rivojlanishiga umumiy tavsif berish;
- mintaqa sanoat rivojlanishiga tasir koʻrsatuvchi omillarni ochib berish;
- respublika hududiy va tarmoq dasturlari doirasida viloyat sanoatini rivojlantirish darajasini tahlil qilish;
- xalq taʼlimi, kadrlar tayyorlash sohasidagi islohotlar samarasini aniqlash;
- viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi oʻziga xos xususiyatlarni tahlil qilish.

Tadqiqot obʼekti etib Qashqadaryo viloyati sanoat korxonalarini oqilona joylashtirish masalasi tanlandi.

Mintaqada sanoatni oqilona joylashtirish va rivojlantirishning omillari va yoʻnalishlari tadqiqot ishining predmeti hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyati mamlakatning asosiy yoqilg'i-energetika bazasiga aylandi. Umuman, mustaqillik yillarida bu viloyatning sanoat korxonalarida texnika va texnologiya yangiliklarini joriy etish keng ko'lamda olib borildi. Bu ishlarning barchasi mintaqa aholisining sanoat mahsulotlariga bo'lgan talabini to'laroq qondirish, mahsulot sifatini yaxshilashga erishish, og'ir qo'l mehnati sharoitida ishlayotgan sex va ustaxonalarni yangi zamonaviy texnika bilan jihozlash maqsadida amalga oshirildi.

O'zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar qishloq xo'jaligida ijobiy o'zgarishlarga omil bo'lmoqda. Bu yo'nalishda eng birinchi jiddiy yutuq – mulkchilik turlarining o'zgarishidir. Respublika Prezidenti Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi X sessiyasida so'zlagan nutqida "... hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligida 1374 ta jamoa, 99 ta ijara xo'jaligi, 51 ta aksionerlik jamiyati, 20.000 tadan ortiq fermer xo'jaligi, 526 ta shaxsiy chorvachilik fermasi va 13 mln. gektar yaqin shaxsiy tomorqa xo'jaligi faoliyat ko'rsatmoqda"² – deb ta'kidlagan edi. Shu tufayli istiqbol yillarida qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlarida salmoqli o'zgarishlar namoyon bo'ldi³.

Amalga oshirilgan agrar islohotlar qishloq hayotini yangiladi, dehqon va fermerlarning mehnatga munosabati, dunyoqarashi o'zgardi.

Keyingi davrda O'zbekiston janubidagi viloyatlarda import o'rnini egallovchi mollarni ishlab chiqaradigan yangi korxonalarni barpo etishga, mavjud korxonalarni qayta jihozlashga, tadbirkorlikni rag'batlantirishga e'tibor kchaytirildi. Bu borada mintaqada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish, gaz-kimyoy, yengil sanoat, oziq-ovqat va yoqilg'i-energetika sohalariga investitsiyalarni jalb qilish yuzasidan katta ishlar amalga oshirildi. Natijada birgina Qashqadaryo viloyatida 2006 yilda 1 trillion 838, 4

² Каримов И.А. Қишлоқ хўжалиги тараққиёти – тўқин ҳаёт манбаи / Хавфсизлик ва барқарорлик тараққиёт йўлида. Т.6. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – Б. 405.

³ Хомитов К.З. Малакали аграр меҳнат бозорининг шаклланиши (Қашқадарё вилояти мисолида). Икт. фан. ном. дисс. – Тошкент, 1999. – Б.160.

mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi; 29 ta korxona modernizatsiya qilindi, xususan, zamonaviy texnologiya bilan qayta jihozlandi⁴.

O'zbekistonning janubiy viloyatlari aholi soni tez o'sib borayotgan hudud hisoblanadi. Qashqadaryo aholisi yiliga 40 mingga ko'paymoqda. Surxondaryoda ham yiliga 35–40 mingga oshishi kuzatilmoqda⁵. Bu esa odamlarni ish bilan ta'minlash, bog'cha, maktab, shifoxonalar, uy-joy, gaz-suv, yo'l masalalarini hal etishni, qishloqlarda fermer va dehqon xo'jaliklarini, o'rta va kichik tadbirkorlikni rivojlantirishni taqozo qiladi.

Aholining tabiiy o'sishi jadallik bilan davom etishi yangi ish joylarini yaratish vazifasini ko'ndalang qo'yishi aniq. Qishloq joylarda hozirgi kunda mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash o'tkir muammo bo'lib qolmoqda⁶. Shuning uchun mintaqada suv resurslari tanqisligi, ekin maydonlarini kengaytirish imkoniyatlari cheklanganligi ham bu borada bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Sog'liqni saqlash tizimi muammolarining bir qismi xususiy mulkchilik shaklidagi korxona va muassasalar tomonidan hal etildi. Aynan shu sohada ham mulkchilikning xususiy shakli asta-sekin o'z o'rnini egallamoqda. Ayniqsa, sog'liqni saqlash tizimida bo'lajak onalar salomatligini muntazam nazorat qilib boradigan, sog'lom bolalar tug'ilishiga xizmat qiladigan keng tarmoqli "Oila markazlari"ning o'rne va ahamiyati katta bo'lmoqda. Agar 1991 yilda onalar o'limi ko'rsatkichi har 100 ming nafar ayolga nisbatan 65 tani tashkil etgan bo'lsa, 2006 yilga kelib bu raqam 24 taga tushgan. Go'daklar o'limi esa ilgari 1000 nafar chaqaloqqa 35 ta to'g'ri kelgan bo'lsa, 2006 yilda 14 taga tushgan.

Viloyatdagi universitet, institut, litsey, kollej va maktablar respublika iqtisodiyoti, agrar sohasi, fan, madaniyat, xizmat ko'rsatish kabi sohalarda ishlovchi kadrlarni tayyorlashga salmoqli hissa qo'shmoqdalar. Ta'lim

⁴ Qashqadaryo viloyati iqtisodiyot va statistika boshqarmasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007. – B.16.

⁵ Каримов И.А. Ватан озодлиги, халқимнинг омонлиги, юртимнинг равнақи, ҳар бир оила фаровонлиги – мен учун олий саодат. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – Б. 218.

⁶ Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б.103.

sohasidagi milliy dasturlarni hayotga tatbiq etish boshlangandan buyon 1140 taga yaqin akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, 4680 tadan ziyod umumta'lim maktablari yangitdan qurildi va kapital ta'mirlandi. Zamonaviy mebel, o'quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlandi. Ularda kompyuter sinflari va lingafon xonalari tashkil etildi. Eng muhimi, ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlarida akademik litsey va kollejlari uchun zamon talablariga javob beradigan yangi toifadagi o'qituvchilarni tayyorlash ishlari yo'lga qo'yildi.

I bob. Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.

1.1. Qashqadaryo viloyatida sanoat korxonalari faoliyati hamda neft va gaz sanoatining rivoji.

Sanoat iqtisodiyotning muhim tarmog'i hisoblanib, ko'p jihatdan uning zamonaviy qiyofasi va istiqbollarini belgilab beradi. Har bir mintaqaning sanoat salohiyati xom ashyo, investitsiya, mehnat resurslari va boshqa omillarga bog'lik bo'lib. ular sanoat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mintaqaning sanoat salohiyati unda mavjud jami resurslar majmuasi va qulay sharoitlardan to'liq foydalangan holatdagi potensial imkoniyatlar bilan tavsiflanadi. Boshqacha qilib aytganda, sanoat salohiyati foydalanilayotgan va foydalanishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish omillari yig'indisidan iborat.

Mintaqa sanoat salohiyati shakllanishida tabiiy resurslar aloxida o'rin egallaydi. Tabiiy resurslar, bir tomondan, sanoat ishlab chiqarishi uchun xom ashyo vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan ishlab chiqarish uchun sharoit bo'lib xizmat qiladi. Qashqadaryo viloyatida mavjud xom ashyo zaxiralarining 3/4 qismi yoqilg'i resurslari ulushiga to'g'ri keladi⁷.

Viloyatda 71 ta mineral xom-ashyo zaxiralari mavjud. Jumladan, 1775,4 ming tonna o'tga chidamli materiallar xom-ashyosi, 265,6 mln. tonna sement xom-ashyosi, 70 mln.tonna gips, 69 mln. tonna kaliy tuzi, 39 mln. tonna oyna ishlab chiqarishda foydalaniladigan xom-ashyo, 11 mln. tonna glaukonit, 6 mln. tonna ohak, 3 mln. tonna marmar, 1 mln. tonna marganes va boshqa xom-ashyo zaxiralari mavjudligi aniqlangan bo'lib, ulardan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning katta imkoniyatlari mavjud. Bundan tashqari, yuqorida ta'kidlanganidek, neft, osh va kaliy tuzi, sement xom ashyosi, marmar va boshqa resurslarning zaxiralari mavjud. Mintaqada aniqlangan gaz zaxiralari 1452

⁷ Ўрокова Н.С. Ўзбекистонда мустақиллик даврида саноат соҳасидаги ислохотлар ва ўзгаришлар жараёни (жанубий вилоятлар мисолида). Тарих.фан.ном. дисс. – Тошкент: ЎзМУ, 2004. 48 б.

mlrd. m.kub ni tashkil qiladi. Ular asosan Sho'rtan, Shimoliy va Janubiy Muborak, Qoraqum, Qultak, Zevarda, Odamtosh, Qumbuloq, O'rtabuloq, Janubiy Tandirchi gaz konlari hamda Toshloq, Sho'rtepa, Qoraxitoy, Kukdumaloq, Alan neft va gaz kondensati konlarida joylashgan. Jami 43 ta foydali qazilma joylari aniqlangan bo'lib, viloyatda respublika tabiiy gaz zaxiralarining 80%i to'plangan⁸.

Mintaqaning tabiiy gazi respublikaning asosiy yoqilg'i bazasi hisoblanadi. Tabiiy gaz resurslari elektroenergetikaning rivojlanishida, shu jumladan Tallimarjon GESning 3200 mvt quvvatini ishga tushirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, mineral xom ashyoning uch gurux zaxiralari aniqlangan, bular: tog' kimyo, qurilish materiallari, tog' ruda kabilar. Tog' kimyo xom ashyolari tosh va kaliy tuzlaridan iborat bo'lib, ularning zaxiralari asosan chegaralanmagan. Tosh tuzining Tepaqo'ton va Boybichaxon konlari 19.4 mln.t zaxiraga ega⁹. Boybichaxon tuz koni mahsuloti kimyo sanoati korxonalarida soda va xlor olishda xom-ashyo sifatida foydalaniladi. Tepaqo'ton konining tosh tuzidan faqat kaliy tuzlari olishda foydalanish mumkin. Ushbu foydali qazilma koni kaliy o'g'itlari ishlab chiqarishda qo'llanilib, respublikada yagona hisoblanadi va uning aniqlangan zaxiralari 400,3 mln.t.ni tashkil etadi. Sanoatning rivojlanishi albatta xom ashyo zaxiralarining qanchalik katta ekanligiga bog'liq. Yuqorida sanab o'tilgan zaxirala asosan yoqilg'i ekanligini xisobga olsak, viloyat asosan yoqilg'i sanoatiga ixtisoslashgan.

Viloyatda gaz kondensatini Muborak neft-gaz konlari, Muborak gazni qayta ishlash zavodi, "Sho'rtan neft-gaz" sho'ba korxonasi, Sho'rtangaz kimyo majmuasi hamda "Hisor neft-gaz" qo'shma korxonalari ishlab chiqaradi. Ularning orasida gaz kondensati bo'yicha Muborak neft-gaz konlari boshqarmasi va Sho'rtan neft-gaz, neft va tabiiy gaz qazib olishda Muborak

⁸ Қашқадарё вилояти истиклол йилларида / Муаллифлар гуруҳи раҳбари А. Эркаев. – Тошкент: Маънавият, 2007. 46 б.

⁹ Курбонов Ш.Б. Кичик худудлар ижтимоий-иқтисодий географияси. - Т.: "MUMTOZ SO'Z", 2013.

neft-gaz konlari yetakchilik qiladi. Suyultirilgan gazning yarmiga yaqinini Sho'rtangaz kimyo majmuasi yetkazib beradi, ikkinchi o'rinda Sho'rtan neft-gaz sho'ba korxonasi turadi¹⁰. Oltingugurtning deyarli 100 foizga yaqinini Muborak gazni qayta ishlash zavodi ta'minlaydi¹¹.

Mamlakat sanoati asosiy fondlarining 2000 yilda 9,2 foizi Qashqadaryo viloyati hissasiga to'g'ri keldi. Bu fondlarning asosiy qismi yoqilg'i-energetika majmuasiga tegishli. 2000 yilda Respublika iqtisodiyotiga yunaltirilgan kapital quyilmalarning 16.9 foizi yoki 117.9 mlrd. so'mi Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotiga, uning 96.15 mlrd. so'mi yoki 81.5 foizi sanoat tarmog'iga yunaltirildi.

Qashqadaryo viloyatining yoqilg'i-energetika resurslariga boy ekanligi va bu soxaning davlat tomonidan qullab-quvvatlanishi natijasida keyingi yillarda respublika byudjetidan viloyat iqtisodiyotiga ajratilgan kapital mablag'lar hissasi o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Xususan. 1999 yilda respublika, byudjetidan ajratilgan kapital mablag'larida Qashqadaryo ulushi 4,8 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2000 yilda bu kursatkich 7.4 foizga etdi.

Viloyatda yoqilg'i-energetika resurslaridan tashqari ko'rilish materiallarining ham yirik zaxiralari mavjud. Ularning viloyatdagi barcha mineral xom ashyo resurslari qiymatidagi ulushi 3,3 foiz bo'lsada, ammo respublikadagi barcha qurilish materiallari qiymatidagi Ulushi 7.1 foizni tashkil etadi. Viloyatdagi Pachkamar konida 14571 ming kubometr keramzit zaxirasi mavjud bulib, u respublika keramzit xom ashyosining 10.2 foizini tashkil etadi. Bu xom ashyoning mavjudligi keramzit maxsulotlari ishlab chiqarishga imkon yaratadi. Shuningdek, viloyatda respublikadagi oyna xom ashyosining 1,84 foizi, qurilish toshlarining 0.5 foizi joylashgandir. Mintaqada qurilish materiallarining ko'pgina turlari mavjud bo'lsada, ular viloyat sanoat ishlab chiqarishiga jalb

¹⁰ Ортикова Ф. Шўртаним – сарбаланд кўрғоним. – Қарши: Насаф, 2007. 21 б.

¹¹ Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. Т. 2014.

qilinmagan. Xususan, Qarshi shahrida keramzit beton zavodi faoliyat yuritadi. Zavod ishlab chiqarish uchun zarur xom ashyoni Samarqand va Navoiy viloyatlaridan keltiradi. Viloyatdagi Pachkamar keramzit koni esa o'zlashtirilmagan.

Sanoat ishlab chiqarishining investisiya resurslari asosiy fondlar hajmi va sanoat ishlab chiqarishiga qo'yilayotgan va qo'yilishi mumkin bo'lgan kapital qo'yilmalar hisobidan shakllanadi.

O'tish davrida davlat ham, aholi ham, korxonalar ham iqtisodiyot rivojlanishi uchun zarur bo'lgan mablag'larni ta'minlay olmaydi. Buning asosiy sababi shundan iboratki, o'tish davri xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda davlat bu davrda aholini ijtimoiy himoyalash. institusional tizimni barpo etish bilan bog'lik qo'shimcha xarajatlarni amalga oshirishga majbur bo'ladi. Aholi daromadlarining pastligi kishilarda jamg'arish imkoniyatini cheklaydi. Kredit mablag'larini sanoat ishlab chiqarishiga jalb qilish inflyatsiya darajasining yuqoriligi tufayli barqaror daromad olish imkoniyatini qisqartiradi. Qarz foizlarini qaytarish korxonalarga og'irlik qiladi. Shu munosabat bilan iqtisodiyot rivojlanishida, sanoat salohiyatini oshirishda xorijiy investisiyalarni jalb etish muhim o'ringa ega. Biroq, Qashqadaryo viloyatida xorijiy investisiyalarni jalb etish birmuncha oqsamoqda, Xususan, 1999 yilda jami kapital mablag'lar xajmida bevosita xorijiy investitsiyalarning ulushi 0,4 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2000 yilga kelib bu kursatkich birmuncha oshib, 1.2 foizga etdi.

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy investisiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalar soni 2000 yilda 26 taga yetdi. Ular tomonidan 3,9 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Viloyatning respublikadagi xorijiy korxonalar sonidagi salmog'i 1.9 foizni ishlab chiqarilgan mahsulot hajmidagi salmog'i 1.0 foizni tashkil etadi, xolos.

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotiga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalarining asosiy qismi sanoat tarmog'iga jalb qilindi. 2000 yilda Respublika iqtisodiyotiga

yo'naltirilgan kapital qo'yilmalarning 16.9 foizi yoki 117.9 mlrd. so'mi Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotiga, uning 96.15 mlrd. so'mi yoki 81.5 foizi sanoat tarmog'iga yo'naltirildi. 2010 yilda esa kapital qo'yilmalarning eng katta qismi Muborak (28,0 %) Mirishkor (16,9 %) tumanlariga to'g'ri kelgan. Shuningdek, G'uzor (12,3 %) tumani va Qarshi shahrining (11,0 %) investitsion salohiyati ham yuqoriroq bo'lgan. Eng so'nggi yillarda Dehqonobod tumanida respublikamizda yagona kaliy zavodini qurish munosabati bilan bu hududga yo'naltirilgan investitsiya mablag'lari ham ortib bormoqda (7,7 %). Sanoatni rivojlantirish uchun ajratilgan mablag'lar sanoat korxonalarini yangi texnologiyalar bilan jihozlash va mahsulot sifatini yaxshilashga sarf qilindi. Sanoat tarmog'iga qo'yilgan kapital va xorijiy investitsiyalar viloyat iqtisodiyotida sanoat mahsulotlari ulushining ortishini taminladi.

Qashqadaryo viloyatining respublika yoqilg'i-energetika majmuasida alohida o'rin egallashini qayd etish lozim. Bugungi kunda respublikamizda qazib olinayotgan tabiiy gaz, gaz kondensati va neftning aksariyat qismi Qashqadaryo viloyati hissasiga to'g'ri keladi¹². Viloyat sanoatining tarmoq tarkibida og'ir sanoatning boshqa tarmoqlari ulushi nihoyatda past. Buning ustiga ularning ulushi pasayish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Mustaqilliq yillarida yoqilg'i-energetika majmuasidan boshqa og'ir sanoat tarmoqlarining yalpi sanoat mahsulotidagi ulushi 7,2 foizdan 5,5 foizga pasaydi. Agar 1991 yilda bu tarmoqlarning jami asosiy fondlardagi ulushi 9,4 foizga, sanoat ishchilaridagi ulushi 33,9 foizga teng bo'lgan bo'lsa, 2000 yilga kelib bu ko'rsatkichlar muvofiq ravishda 1,7 va 26.0 foizga teng bo'ldi, xolos. Bu shundan dalolat beradiki, yoqilg'i-energetika majmuasidan boshqa og'ir sanoat tarmoqlarining asosiy fondlar bilan ta'minlanishi, fond qaytimi va ularda band bo'lgan ishchilar soni qisqargan, mehnat unumdorligi pasaygan. Ayniqsa, kimyo va neft kimyosining yalpi sanoat

¹² Қашқадарё вилояти истиқлол йилларида / Муаллифлар гуруҳи раҳбари А. Эркаев. — Тошкент: Маънавият, 2007. 48 б.

maxsulotidagi ulushi yuqori sur'atlarda pasaydi. Bu tarmoqning yalpi sanoat mahsulotidagi ulushi 1991 yilga nisbatan 2000 yilda 3,0 barobarga qisqargan.

Qashqadaryo viloyatida yirik miqdorda paxta xom ashyo ishlab chiqarilishi (2000 yilda viloyatda 265,1 ming tonna paxta xom ashyosi -ishlab chiqarilgan) va mehnat resurslarining ko'pligi bu mintaqada yengil sanoatni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Ammo islohotlar yillarida yengil sanoatning jami sanoatdagi ulushi sezilarli darajada pasaydi. Agar 1991 yilda yalpi sanoat mahsulotining 40 foizga yaqini yengil sanoat hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2000 yilga kelib mazkur ko'rsatkich 19,4 foizgacha pasaydi¹³. Bunga bir tomondan, yengil sanoat tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish hajmining kamayganligi, ikkinchi tomondan, yoqilg'i-energetika sanoatida mahsulot ishlab chiqarishning yuqori sur'atlarda o'sganligi ta'sir ko'rsatdi.

Yengil sanoat asosiy fondlari va unda band bulgan sanoat ishchilarining ulushi ham pasaymokka. Jumladan. 1991 yilga nisbatan 2000 yilda yengil sanoat tarmog'ining sanoat asosiy fondlaridagi ulushi deyarli 2 marta qisqargan bo'lsa, sanoat ishchilari ulushi 7,8 foizga pasaydi. Yengil sanoatning asosiy qismini viloyatda paxtani qayta ishlash sanoati tashkil etadi. 2000 yilda ishlab chiqarilgan yengil sanoat mahsulotlarining 80.4 foizi ushbu tarmoq hissasiga to'g'ri kelgan.

Qashqadaryo viloyatining oziq-ovqat sanoati - viloyat oziq-ovqat majmuasining yirik tarmog'i hisoblanadi. Tarmoqning asosiy vazifasi respublika va viloyat aholisini turli xil yuqori sifatli oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'minlashdan iborat.

Iqtisodiy isloxotlar davrida oziq-ovqat sanoatining viloyat yalpi sanoat mahsulotidagi salmog'i birmuncha pasaydi. Agar 1991 yilda oziq-ovqat sanoatining yalpi sanoat mahsulotidagi ulushi 18,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilga kelib 17.7 foizgacha pasaydi. Mazkur davr mobaynida oziq-ovqat

¹³ Nazarov S.H. Qashqadaryo viloyati - kelajakka intilayotgan mintaq. "O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi", 2003 №7. 25 b.

sanoatining asosan fondlardagi ulushi 3.1 foiz nuqtasiga qisqargan bo'lsa, sanoat ishchilaridagi ulushi 5,0 foiz nuqtasiga o'sdi. Bu shundan dalolat beradiki, tarmoqda mehnat unumdorligi pasaygan. Qashqadaryo viloyati sanoatining tarmoq tarkibidagi o'zgarishlar uning respublika sanoatidagi o'rni va roliga ham muayyan darajada ta'sir ko'rsatdi.

Islohotlar davrida viloyatning respublika qazib oluvchi sanoat tarmoqlaridagi o'rni ancha mustahkamlandi. Jumladan. 1991 yilga nisbatan 2000 yilda viloyatning respublika qazib oluvchi sanoat tarmoqlari yalpi sanoat mahsulotidagi ulushi qariyb 1.5 marta oshdi va 15,9 foizni tashkil qildi. Ushbu davr mobaynida viloyat qazib oluvchi sanoatining asosiy fondlar bilan ta'minlanishi ancha yaxshilandi. Buning natijasida qazib oluvchi sanoat asosiy fondlarida viloyatning ulushi 1991 yilda 21.2 foizdan 2000 yilda 33,9 foizgacha usdi. Ushbu tarmoqdagi sanoat ishchilari ulushining sezilarsiz darajada o'sishi (1991 yilga nisbatan 2000 yilda 4,7 foizdan 6.2 foizgacha) viloyat qazib olish sanoatida mehnat unumdorligining oshganligidan dalolat beradi. Demak, qazib oluvchi sanoat tarmoqlarida Qashqadaryo viloyati ulushining o'sishi ham ekstensiv, ham intensiv omillar ta'sirida yuz bergan.

Yuqorida qayd etganimizdek. viloyat sanoatida yoqilg'i sanoati asosiy o'rinni egallaydi. 2000-2006 yillar davomida yoqilg'i sanoatining viloyat yalpi sanoat mahsulotidagi ulushi 1.6 marta oshgan bo'lsa, respublika yoqilg'i sanoatida viloyatning salmog'i 1,8 martaga qisqargan.

Viloyat elektroenergetika sanoatinmng asosiy fondlar bilan ta'minlanishi yaxshilanganligini ta'kidlash zarur. Qashqadaryo elektroenergetika sanoatining ushbu tarmoq jami asosiy fondlaridagi ulushi 1991 yilga nisbatan 2000 yilda 3,8 marta oshdi va 24.1 foizni tashkil qildi. Ammo uning respublika elektroenergetika mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi mazkur davrda 1,7

marta o'sdi¹⁴, xolos. Buning eng asosiy sababi viloyatda ko'rilayotgan Tallimarjon IES ning ishga tushirilmaganligidir.

Viloyat og'ir sanoatidagi boshqa tarmoqlarning respublikadagi ulushining o'zgarishi turli xil yunalishlarda bordi. Xususan, 2000-2006 yillarda kimyo va neft kimyosining respublikadagi ulushi 0.3 foiz nuqtasiga, qurilish materiallari sanoatining ulushi 2.8 foiz nuqtasiga pasaygan bo'lsa, mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatining ulushi 0,4 foiz nuqtasiga, oyna va shishasozligi sanoatining ulushi 0,1 foiz nuqtasiga, yog'ochni qayta ishlash sanoatining ulushi esa 0.7 foiz nuqtasiga o'sdi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi respublika ko'rsatkichlardan past bo'lgan mintaq tarmoqlari salmog'ida pasayish, aksincha holatlarda o'sish kuzatiladi. Bu tarmoqlarning deyarli barchasining asosiy fondlardagi ulushi pasaydi.

Isloxotlar davrida Qashqadaryo yengil sanoatining respublikadagi ulushi o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi. Agar 1991 yilda yengil sanoat mahsulotlarining 3,5 foizi Qashqadaryoda ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2000 yilga kelib bu ko'rsatkich 7,1 foizga yetdi. Ammo bu o'sish mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko'payishi hisobiga emas, balki ishlab chiqarish hajmining pasayish sur'atlari respublika darajasidan past bo'lishi evaziga yuz berdi. Yengil sanoat tarmog'ining asosini tashkil etuvchi paxtani qayta ishlash sanoatining respublikadagi ulushi ham o'sish tendensiyasiga ega. Malumki, paxtani qayta ishlash sanoatida mahsulot ishlab chiqarishi paxta xom ashyosi ishlab chiqarish darajasiga bog'liq. Bu esa o'z navbatida paxtani qayta ishlash sanoatining respublikadagi ulushi 2000 yilda 1 1,3 foizga o'sishini ta'minlagan.

Oziq-ovqat sanoatining viloyat sanoatidagi ulushi pasayganda, uning respublika oziq-ovqat sanoatidagi ulushi 2003 yilda 2.6 foizdan 2006 yilda 5,6 foizga o'sgan. Biroq, viloyat oziq-ovqat sanoatining asosiy fondlardagi ulushi mazkur davrda 6.8 foizdan 3.4 foizga pasaygan.

¹⁴ Исмоилов А. Қашқадарё энергетика тизими халқаси. – Тошкент, 2006. 44 б.

Muborak tumani sanoatining asosini gaz sanoati tashkil qiladi. Muborakdagi gazni qayta ishlash zavodi nafaqat viloyat, balki respublika gaz sanoatining markazi hisoblanadi. Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqariladigan 54 mlrd.kub.m.ga yaqin tabiiy gazning 90 foizdan ko'prog'i ushbu ulkan zavod hissasiga to'g'ri keladi¹⁵. Bu tumanda gaz sanoatining rivojlanishi unga bog'liq bo'lgan tarmoqlar taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, bu yerda bir yilda 287,4 ming tonna oltingugurt, 427,9 ming kvv/soat elektr quvvati ishlab chiqariladi.

Qarshi shahri Qashqadaryo viloyatining sanoat markazi hisoblanadi. Bugungi kunda shaharda 30 dan ortiq yirik sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Qishloq xo'jalik texnikalarini ta'minlash zavodi, paxtani qayta ishlash zavodi, yog'-moy kombinati. "Sanam" tikuvchilik fabrikasi. "Termoplast" zavodi, temir-beton mahsulotlari zavodi, keramzit zavodi, g'isht zavodi, konserva zavodi, go'sht kombinati. sutni qayta ishlash zavodi, yog'ochni qayta ishlash zavodi va boshqalar shular jumlasidandir.

Mustaqillik yillarida Qarshi shahrida xorijiy investisiyalar ishtirokida bir nechta yirik sanoat korxonalari qurib ishga tushirildi. Xususan. 5 ta fabrika va 1 ta paxtani qayta ishlash zavodini o'zida birlashtirgan "Kashteks" to'qimachilik majmuasi bir yilda 7,5 mln. AQSh dollari miqdorida sifatli trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaradi va unda 2000 nafar kishi band.

Bundan tashqari, yog'-moy kombinati qoshida yog'ni qadoqlashga asoslangan o'zbek-singapur qushma korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. Shunday qilib, tahlillar natijalari 2000-2006 yillarda Qashqadaryo viloyati sanoatini hududiy tarkibidagi o'zgarishlarda quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni ajratib ko'rsatish imkoniyatini beradi:

— islohotlar yillarida respublikamizda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida

¹⁵ Qashqadaryo viloyati istiqlol yillarida / Mualliflar guruhining rahbari A. Erkaev. — Toshkent: Ma'naviyat, 2007. 69 b.

yalpi sanoat mahsulotida nodavlat sektorining ulushi 2006 yilda 53.5 foizdan 2006 yilda 65.4 foizga o'sgan bo'lsa, Qashqadaryo viloyatida bu ko'rsatkich 27.5 foizdan 29,5 foizgacha o'sgan, xolos. Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, sanoati rivojlangan hududlar — Muborak tumani va Qarshi shahrida yalpi sanoat mahsulotining katta qismi davlat sektori hissasiga to'g'ri keladi. Agar 2006 yilda Qarshi shahrida yalpi sanoat mahsulotining 38,6 foizi davlat sektori tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lsa, Muborak tumanida bu ko'rsatkich 95.6 foizni tashkil etgan. Ayni vaqtda qolgan tumanlar yalpi sanoat mahsulotida nodavlat sektori asosiy o'rinni egallaydi. Xususan. 2006-yil ma'lumotlariga ko'ra, ushbu tumanlarda yalpi sanoat mahsulotining 85,8 foizidan (Kitob) 99.8 foizgachasi (U.Yusupov) nodavlat sektori zimmasiga to'g'ri keldi;

— Qashqadaryo viloyati tumanlarida 2000-2006 yillarda sanoat ishlab chiqarish xajmi turli xil sur'atlarda o'sdi. Eng yuqori qo'shimcha o'sish sur'atlari Shaxrisabz (14,3 foiz). Kitob (10.9 foiz) va Qarshi (10.3 foiz) tumanlarida kuzatilgan bo'lsa, eng past qo'shimcha o'sish sur'atlari G'uzor (9,1 foiz), Qamashi (0,3 foiz). Chiroqchi (1,1 foiz). Qarshi shahri (3,1 foiz), Muborak (3,2 foiz). Nishon (3,6 foiz) va Dehqonobod (3.6 foiz) tumanlarida kuzatiladi. Bu esa tumanlarning viloyat yalpi sanoat mahsulotidagi ulushiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, 2000-2006 yillar davomida Qarshi tumanining viloyat yalpi sanoat mahsulotidagi ulushi 0.9 foizdan 1.2 foizga, Koson tumanining ulushi 2,8 foizdan 3,1 foizga, Shaxrisabz tumanining ulushi 3,8 foizdan 5,6 foizga, Yakkabog' tumanining ulushi 2,1 foizdan 2,7 foizgacha o'sgan bo'lsa, G'uzor tumanining ulushi 1,1 foizdan 0.6 foizga, Muborak tumanining ulushi 53,4 foizdan 52 foizga, Qarshi shahrining ulushi 27,8 foizdan 27 foizga qisqardi;

2000-2006 yillar davomida Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishining konsentratsiyalashuvi bir muncha pasaydi¹⁶. Agar 1996 yilda Qarshi shahri va Muborak tumaniga viloyat yalpi sanoat mahsulotining 81,2

¹⁶ Qashqadaryo viloyati istiqlol yillarida / Mualliflar guruhi rahbari A. Erkaev. — Toshkent: Ma'naviyat, 2007. 58 b.

foizi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2000 yilga kelib bu ko'rsatkich 79 foizni tashkil qildi. Qolgan viloyatlar ulushi muvofiq ravishda 18,8 foizdan 21 foizgacha o'sdi.

Viloyatda erishilgan ijtimoiy-iqtisodiy natijalar uning boy tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlariga mos kelmaydi. Iqtisodiyotning shakllangan tarkibiy tuzilishi mavjud ijtimoiy muammolarni yecha olmaydi. Chetga chiqarilayotgan mahsulotlarning 90 foizdan ko'prog'i esa xom-ashyo resurslaridir.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha tumanlar o'rtasidagi tabaqalanish darajasi 2000 yildagi 18,2 martadan 2006 yilda 28,6 martaga, iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish bo'yicha esa tegishli ravishda 24,7 martadan 34 martaga oshgan.

Ijtimoiy sohaning rivojlanishi boshqa viloyatlarga qaraganda sust bo'lib, bu holat pul daromadlari darajasi bo'yicha tumanlar o'rtasidagi farqlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

2000-2005 yillar mobaynida Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotida nodavlat sektorining ulushi ortib bordi. Jumladan, YaIMda nodavlat tashkilotlari ulushi 2000 yilda 82,5 % dan 2005 yilda 97,0% ga yetdi. Bundan tashqari, nodavlat korxonalari ulushi sanoat, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, savdo sohalarida 99 % dan ortiqni tashkil etdi. Xizmatlar sohasida nodavlat korxonalari salmog'i yildan-yilga ortib borayotgan bo'lsada 2005 yilda mazkur korxonalar ulushi 85,6% ni tashkil etdi. Ma'lumki, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanganligi iqtisodiyotni boshqa sohalarini ham rivojlanishiga sinergik samara beradi yoki boshqacha qilib aytganda zanjirsimon turtki bo'ladi. Bu sohani rivojlantirish iste'molchilar talabiga tez moslasha oladigan yuqori sifatli, arzon va qulay maishiy xizmat servisini taklif etish orqali amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yuqorida aytilgan talablarga xususiy tadbirkorlik faoliyatini yuritayotgan kichik va o'rta miqyosdagi korxonalar tezlik bilan moslasha oladilar. Demak, viloyatda xizmat ko'rsatish sohasini nodavlat sektoriga aylantirish imkoniyatini kuchaytirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilma hamda iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishini kuchaytirish mumkin.

Tahlil etilayotgan davr mobaynida viloyatda kichik tadbirkorlikning yuqori sur'atlarda rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin. 2006 yilda kichik korxonalar soni 2000 yilga nisbatan salkam 5,4 barobarga ortdi: 2000 yilda 13044 ta kichik korxona faoliyat yuritgan bo'lsa, 2006 yilga kelib ularning soni 69845 taga etdi. Tegishli ravishda 2000-2005 yillar mobaynida mikrofirmalar soni 4.9 barobarga ortgan. Kichik korxonalarning mahsulot sotishdan yalpi tushumi ham ko'paydi. Agar bu ko'rsatkich 2000 yilda 19,7 mln. so'mdan 9,8 barobarga ko'payib, 2005 yilda 193,5 mln. so'mga etdi¹⁷.

Ko'rinib turganidek, 2000-2005 yillar davrida kichik korxonalarning YaIMdagi ulushi 25,8% dan 38,4% ga ortdi. Viloyat kichik tadbirkorlik sektorining tashqi savdo aylanmasini rivojlantirishdagi ishtiroki sezilarlidir. Masalan, 2005 yilda kichik tadbirkorlik korxonalarining mintqa eksportidagi ulushi 2,5 foizni, importidagi ulushi esa qariyb 70 foizni tashqil qildi. Kelgusida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining eksport salohiyatini kuchaytirish uchun ularni jahon standartlari talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh, eksportbop tovarlar ishlab chiqarishini rag'batlantirish chora-tadbirlarini qo'llash lozim. Bunday rag'batlarning natijasi-nafaqat kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ishlab chiqarish va moliyaviy ko'rsatkichlarida namoyon bo'ladi, balki mintqa uchun bugungi kunda muhim ijtimoiy masala - bandlik muammosi yechimiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Fikrimiz tasdig'ini jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin. 2000-2006 yillar davomida kichik tadbirkorlik korxonalari hisobiga tashkil qilingan. yangi ishchi o'rinlari qariyb uch baravarga oshgan.

Qashqadaryo viloyatida 2006 yilda 2005 yilga nisbatan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish 7,9 foizga oshdi, yalpi ichki mahsulot hajmida esa sanoatning ulushi 2000 yildagi 18.6 foizdan 31.7 foizga etdi. Bugungi kunda ish bilan band aholining 7,2 foizi sanoat korxonalariga to'g'ri keladi.

¹⁷ Nazarov S.H. Qashqadaryo viloyati - kelajakka intilayotgan mintqa. "O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi", 2003 №7. 26 b.

Viloyat sanoatining asosini mamlakatimizning neft, gaz va kimyo sanoati gigantlari - Muborak gazni qayta ishlash zavodi, «Sho'rtangazkimyo» majmui, «Sho'rtanneftgaz», «Muborakneftgaz» unitar sho'ba korxonalari tashkil qiladi. 2005 yilda bu korxonalarda 57,9 milliard kubometr gaz, 3,2 million tonna neft, 2 million tonna kondensat, 116,8 ming tonna polietilen ishlab chiqildi¹⁸. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni modernizasiyalash jarayoniga xorijiy investorlarni jalb qilishga e'tibor qaratilgani ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishlab chiqarishni modernizasiyalash o'z navbatida mahsulot hajmi va sonini ko'paytirish imkonini bermoqda. Masalan, 2006 yil davomida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda o'sishga erishildi. O'sish darajasi alkagolsiz ichimliklar bo'yicha 66,2 % ni, g'isht ishlab chiqarishda 65,4, temir-beton buyumlari tayyorlashda 33,8, kiyim-kechak va paxta tolasi bo'yicha esa mos ravishda 45,1 va 13,1 % ni tashkil etdi. Shuningdek, viloyatda 15 turdagi yangi mahsulotni ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bular: alyuminiy eshik va deraza romlari. yangi rusumdagi mebellar, plastmassalar, bezakli g'ishtlar, paypoqlar, chinni buyumlar, pivo va boshqa mahsulotlardir. Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turganidek, viloyatda yengil sanoat va qurilish industriyasi yuqori darajada jihozlanmoqda. Aniqroq aytadigan bo'lsak, agar 2005 yilda yengil sanoat korxonalarida 173587,6 mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, 6 yilda bu ko'rsatkich 222644,9 so'mga yetdi yoki 108,7 % o'sishga erishildi. Qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida esa o'sish darajasi bundan yuqori - 115,5% ni tashkil qildi.

2000 yilda sanoat mahsuloti 3,4%ga ko'paydi. Ana shu yilda viloyatda 93 ta asosiy sanoat korxonalari mavjud bo'lib, ularning barchasida band bo'lgan ishchi xodimlar 27,4 ming kishini tashkil qilgan. Bir yilda taxminan 0,5 mln.kvt/s elektr energiyasi, 3,8-4,3 mln.t.neft, 3,5 mln t atrofida gaz kondensati (suyultirilgan gaz), 300 ming tonnaga yaqin oltingugurt, 5,2 mln m² ip-gazlama,

¹⁸ Ўрокова Н.С. Ўзбекистонда мустақиллик даврида саноат соҳасидаги ислохотлар ва ўзгаришлар жараёни (жанубий вилоятлар мисолида). Тарих.фан.ном. дисс. – Тошкент: ЎЗМУ, 2004. 48 б.

110 ming tonna paxta tolasi, 20 ming tonnadan ziyodroq o'simlik yog'i, 75 mln shartli banka konserva va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Nisbiy ko'rsatkichlarda hisoblaganda Qashqadaryoga O'zbekistonda qazib olinadigan neftning (gaz kondensati bilan birga) 95%, tabiiy gazning 92 va oltingugurtning deyarli 100 % to'g'ri keladi.

Sanoatning hududiy tashkil etilishida Qarshi, SHahrisabz tumanlari katta ahamiyatga ega; Muborak (gaz-kimyo majmuasi), Koson (yog'-ekstrakt, paxta tozalash, g'isht zavodi), Sho'rtan (neft-gaz-kimyo), Tolimarjon (IES), Ko'kdumaloq (neft), Chiroqchi (konserva zavodi) va boshqa sanoat punktlarining ahamiyati ham oshib bormoqda. Qarshi, Qamashi va Shahrisabzda to'qimachilik korxonalari ("Oqsaroy - to'qimachi" QK, ipakchilik), aksariyat tuman markazlarida paxta tozalash zavodlari mavjud¹⁹.

Jami sanoat mahsulotining 16,9 foizi viloyat markazi - Qarshi shahriga to'g'ri keladi. Muborak tumanida sanoat mujassamlashuv ko'rsatkichi bundan ham yuqori – 43,2 foiz. SHuningdek, G'uzor tumanida ham sanoat ishlab chiqarishi yuqori darajada – 26,1 %. Bu ikki qishloq tumani viloyat markazi bilan birgalikda jami sanoat mahsuloti hajmining 86,2 foizini beradi. Qolgan hududlarda sanoat sust rivojlangan. Bu borada biroz SHahrisabz va Koson tumanlari ajralib turadi, Dehqonobodda esa ushbu makroiqtisodiyot tarmog'i rivojlanib bormoqda. Jahonda kaliy o'g'itlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan jami 14 ta zavod mavjud bo'lsa, shulardan biri Dehqonobodda joylashgan. Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan ushbu sanoat majmuasining loyihaviy quvvati yiliga 200 ming tonna kaliy o'g'iti ishlab chiqarishga mo'ljallangan. Sanoat-milliy iqtisodiyotning muhim tarmog'idir. Shu sababli ham har doim sanoatni rivojlantirish, uni xududiy jihatdan oqilona joylashtirishga katta e'tibor beriladi. Sanoat milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari uchun moddiy texnika vositalarini ishlab chiqaradi hamda tabiiy, moddiy va mehnat resurslaridan

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi ensiklopediyasi. Qomuslar bosh tahririyati. T.1997.

foydalanishning holatini belgilaydi. Hozirgi vaqtda viloyatda 100 dan ortiq yirik korxonalar bor. Shular orasida tabiiy gaz qazib olish va uni qayta ishlash, paxta tozalash, moy-ekstraksiya, qurilish materiallari, tikuvchilik va ko'plab oziq-ovqat korxonalarini ko'rsatish mumkin. Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishning o'sishi bilan uning tizimida ham katta o'zgarishlar yuz berdi.

Viloyat sanoati tarmoqlari ichida yalpi mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha 1-o'rinda yoqilg'i sanoati turadi. Hozirgi vaqtda bu tarmoq ulushiga ishlab chiqarilayotgan barcha yalpi sanoat mahsulotining 40,9%i, asosiy ishlab chiqarish jamg'armalarining 64,5%i to'g'ri keladi²⁰. Undan keyin yengil sanoat tarmoqlari hamda oziq-ovqat sanoati muhim o'rin tutadi. Keyingi 20 yil davomida viloyatda yoqilg'i, qurilish, mashinasozlik va metallni qayta ishlash tarmoqlarining o'sishi natijasida sanoat tizimida og'ir sanoatning salmog'i o'sib bordi.

2010 yil yakunlariga ko'ra, viloyat sanoatining ichki tuzilishi quyidagicha: yoqilg'i sanoatining ulushi (mahsulot qiymati bo'yicha) 75,9 foiz, yengil sanoat – 7,4, oziq-ovqat 4,8, un-krupa, omuxta yem sanoati – 2,8 foiz. Taqqoslash uchun: 2000 yilda yuqoridagi ko'rsatkichlar, mos holda, 56,4; 18,1; 9,2; va 2,6 foizni tashkil qilgan. 2013 yil yakunlariga ko'ra, sanoatining ichki tuzilishi quyidagicha: yoqilg'i sanoatining ulushi (mahsulot qiymati bo'yicha) 70,5 foiz, yengil sanoat - 8,5, oziq-ovqat 6,0, un-krupa, omuxta yem sanoati - 2,8 foiz²¹. Taqqoslash uchun: 2000 yilda yuqoridagi ko'rsatkichlar, mos holda, 56,4; 18,1; 9,2; va 2,6 foizni tashkil qilgan. Demak, bundan xulosa qilish mumkinki, so'nggi 10 yil davomida mintaqqa sanoati tarkibida ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish yoki og'ir sanoat tarmoqlari jadal rivojlanib borgan. Bu ham bo'lsa viloyat iqtisodiyotini industriyallashtirishning natijasi sanaladi²². Yalpi hududiy mahsulotining ichki tarkibi ham uning iqtisodiyotini tobora industrial-

²⁰ Исмоилов А. Қашқадарё энергетика тизими халқаси. – Тошкент, 2006. 48 б.

²¹ Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. Т. 2014. 295 б.

²² Солиев А., Назаров М., Курбонов Ш. Ўзбекистон ҳудудлари ижтимоий-иқтисодий ривожланиши. Т, 2010. 65 б.

agrar yo'nalishga o'tib borishini asoslab beradi. Jumladan, 2008 yilda yalpi hududiy mahsulotning 33,0 foizi sanoat ishlab chiqarishiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2010 yil u 40,7 foizni tashkil qilgan(2013 yil - 37,4 %).

2013 yilda sanoat mahsuloti 2012 yilga nisbatan taqqoslama narxlarda 4,1 % foizga ko'paygan (respublikada - 8,8 %). Viloyatda jami 425 ta sanoat korxonalari mavjud bo'lib, yiriklari 38 ta. Bir yilda taxminan 1,0-1,5 mln.t neft, 50-52 mlrd. m tabiiy gaz, 1,3-1,5 mln. t atrofida gaz kondensati (suyultirilgan gaz), 400 ming tonnaga yaqin oltingugurt, 1 30 ming t polietilen, 2 mln. m ip-gazlama, 146-150 ming tonna paxta tolasi, 30-31 ming tonna o'simlik yog'i, 20-25 mln. shartli banka konserva, 205 ming t un va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi²³.

Nisbiy ko'rsatkichlarda hisoblaganda Qashqadaryoga O'zbekistonda qazib olinadigan neftning (gaz kondensati bilan birga) 95 foizi, tabiiy gazning 92, oltingugurtning va kaliy o'g'itining deyarli 100 foizi to'g'ri keladi. Shu o'rinda qayd etish joizki, avvalgi yillarda mutloq ko'rsatkichlarning ba'zilar ancha yuqori bo'lgan. Masalan, 2000 yilda neft qazib olish 3,6-4,0 mln. t, suyultirilgan gaz 3,5 mln. t ni tashkil qilgan.

Qashqadaryo viloyatida sanoat tarmoqlarining rivojlanishi uchun yaratilgan sharoit va qulayliklar o'z samarasini bermoqda. Ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlariga ichki va tashqi bozorda talab katta ekanligi mahsulotning raqobatbardosh ekanligini ham ko'rsatadi. Qashqadaryo viloyatida 2015 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 8277,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2014-yilning shu davriga nisbatan 103,8 foiz ko'rsatgichga erishdi²⁴. Qashqadaryo viloyatida 2016 yilning yanvar oyida 685,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. O'sish sur'ati 2015-yilning shu davriga nisbatan

²³ Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. Т. 2014. 296 б

²⁴ www.qashstat.uz

101,8 foizni tashkil etdi²⁵. Bu natijalarga erishishda mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning o'rni beqiyosdir.

Sanoat sohasida olib borilgan islohotlar tufayli viloyatda ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mintaqaning respublika makroiqtisodiyotidagi o'rni, mohiyati o'zgardi. Bu o'zgarishlar asosan neft, gaz, kapital qurilish sohasida yaqqol namoyon bo'ldi. Respublika miqyosida janubiy hududlar sanoat ishlab chiqarishining o'rni hamda umumiy milliy daromaddagi ulushi ancha o'sdi. Qishloq xo'jaligi qatorida sanoatda qo'shma korxonalar soni ko'payib bormoqda. Sanoatning ba'zi tarmoqlarida xususiy sektorning roli oshmoqda. Bu yo'nalishda gaz va neft razvedkasi, ularni ishlab chiqarish va qayta ishlash sohalari istiqbolli sanaladi. Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotida sanoat tarmoqlari ulushining ortishi agrar-industrial davlatdan industrial davlatga aylanish yo'lidagi dastlabki qadamlardan hisoblanadi.

²⁵www.qashstat.uz

1.2. Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlar va ularning natijalari.

Viloyat iqtisodiyotining agrosohasi asosan paxta, g'alla va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan. 2009-yilda barcha toifadagi xo'jaliklarda yaratilgan qishloq xo'jaligi maxsuloti oldingi yilga nisbatan 6,8 foizga ortgan (2010 yilda 7,1 foizga). Jami mahsulot xajmida dehqonchilik 52,8 foizni tashkil qiladi. Umumiy hajmda mintaqa O'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotining 8,5 foizini beradi²⁶.

Umumiy ekin maydoni 2000 yil ma'lumotlariga ko'ra, 461 ming ga bo'lib, u respublika ekin ekiladigan yerlarning 12.2 foizini tashkil qiladi.

Qashqadaryo viloyatining umumiy yer maydoni 2857 ming ga, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar jami maydonga nisbatan 76,8 %. Sug'oriladigan yerlar 461 ming ga yoki jami qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 21,0 foizi demakdir. Bunday yerlar ulushi eng yuqori Kasbi tumanida - 90,8 %; ikkinchi o'rinda Qarshi tumani turadi - 66,4 %. Muborak, Shaxrisabz, Yakkabog', Chiroqchi va, ayniqsa, Dehqonobod tumanida u juda past (atigi 1,0 foizga yaqin). Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar tarkibida ekin maydonlari 31,1 foizni tashkil qiladi. Bu xususda Kasbi (87,0 %), Chiroqchi (51,2 %), Qarshi (67,0 %) tumanlari oldinda, Muborak (13,1 %), Dehqonobod (15,9 %) va Mirishkor (20,0 %) oxirgi o'rinlarda turadi. Dehqonobod tumani qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 82,6 % foizi yaylov va pichanzor bilan band. Muborak, Mirishkor, G'uzor tumanlarida ham bunday yerlar ko'p.

2013 yil yakunlari bo'yicha viloyatda jami ekilgan maydonlar 479 ming ga bo'lgan. Shundan donli ekinlar 236 ming ga, yalpi xosil 913 ming tonna. Shu yilda 218 ming gektarga bug'doy ekilgan; yalpi xosil 932 ming tonna,

²⁶ Асанов Г., Набихонов М., Сафаров И. Узбекистоннинг иктисодий ва ижтимоий жуғрофияси. - Т.: Ўқитувчи, 1994.

xosildorlik 45,9 s/ga (2009 yilda 982 ming t., xosildorlik 44,7 s/ga). Xosilning 87,8 foizi fermer xujaliklarida yetishtiriladi. Bug'doy barcha tumanlarda, shuningdek, Chirokchi, Qamashi va Yakkabog' tumanlarida lalmikor yerlarga ham ekiladi²⁷.

Jami ekin maydonidan 202 ming gektari g'alla (bu jihatdan viloyat mamlakatda 1-o'rinda), 150 ming gektari paxta, 4.1 ming gektari kartoshka, 10.6 ming gektari sabzavot, 55 ming gektari yem-hashak yetishtirishga ajratilgan. Bir yilda viloyatda, ob-havo sharoitiga qarab, 300-500 ming tonna g'alla, 265-380 ming tonna paxta, 140-160 ming tonna turli sabzavot mahsulotlari olinadi. Shuningdek, bu yerda 38-40 tonna meva, 45 ming tonna atrofida uzum ham yetishtiriladi. Bulardan tashqari, viloyatda kungaboqar, tamaki, zig'ir kabi qishloq xo'jalik ekinlari ham mavjud.

Umumiy ekin maydoni 3775 ming gektar, shundan g'alla 1612, paxta 1444, kartoshka 52, sabzavot 94, poliz ekinlari 36, yem-xashak 128 ming gektar. 2000 yilda olingan hosil; g'alla 3116 ming tonna (shundan bug'doy 3352), kartoshka 729, sabzavot 2637 va paxta 3002 ming tonna.

Qashqadaryoda yirik shoxli mollar soni 580 ming bosh (O'zbekistonda 2-o'rinda), qo'y va echkilar-1.9 million bosh (1-o'rin). Bir yilda 110 ming donaga yaqin qorako'l terisi, 1.8-1.9 ming tonna pilla yetishtiriladi. Mintaqa agrosanoat majmuida 219 ming t tirik vaznda go'sht, 829 ming t sut, 280 mln. dona tuxum, 6,4 ming t jun yetishtiriladi. Pillachilik sug'orma dehqonchilik rayonlarida, yaylov, jun-go'sht chorvachiligi asosan cho'l mintaqasida rivojlangan.

Qishloq xo'jalik geografiyasida Koson (9,1 %), Chirokchi (10,7 %) tumanlari etakchi, Dehqonobod va Muborak tumanlari orqada. Aholi jon boshiga xisoblaganda yuqori ko'rsatkichlar Nishon, Kasbi tumanlarida, eng pastlari esa Shaxrisabz va Dehqonobod tumanlarida qayd etiladi²⁸.

²⁷ Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. Т. 2014. 298 б.

²⁸ Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. Т. 2014. 299 б.

Viloyat agrosahasining hududiy tarkibida Chiroqchi, Kasbi tumanlari yetakchi o'rinlarda ular birgalikda yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining taxminan 1/5 qismidan ko'prog'ini ta'minlaydi. Bu borada Qamashi, Shahrisabz, Kitob, Qarshi va Koson tumanlarida ham vaziyat yaxshiroq. Ayni chog'da Muborak va Mirishkor tumanlarida qishloq xo'jaligi birmuncha sust rivojlangan.

Qashqadaryo viloyatining milliy iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi katta ahamiyatga ega. Bu tarmoqda yalpi mahsulotning asosiy qismi yaratiladi. O'zbekistonda yetishtiriladigan yalpi qishloq xo'jalik mahsulotining 10,%i, jumladan paxtaning 10,6%, pillaning 7%i, qorako'lning 19%, junning 16%, g'allaning 11,1% i Qashqadaryo viloyatining ulushidir.

Viloyatda jami 8025 ta fermer xo'jaliklari mavjud, ularga 744 ming ga yer biriktirilgan, 105 ming kishi ishlaydi. Yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlari tarkibida fermer xo'jaliklarining hissasi o'rtacha 38,0 % (respublikamiz miqyosida ancha yuqori). Bu ko'rsatkich Dehqonobodda juda past (3,1 %), Nishon, Mirishkor tumanlarida esa u eng baland (55-58 %). Xududiy farqlar asosan agrar sohaning ixtisoslashuviga bog'lik. Odatda, dehqonchilik, xususan paxta ekishda fermerlar yetakchilik qiladi.

Yer maydonlari va ularda ishlaydigan xodimlar soni ham bir xil emas. Masalan, Muborak tumanida 1 ta fermerga 171,5 ga yer va 13,5 kishidan ishchi xodimlar to'g'ri keladi (viloyatda o'rtacha 92,8 ga va 13,1 kishi). Kitob tumanida bu ko'rsatkichlar, mos ravishda, 43,9 va 12,8; Mirishkor tumanida 118,1 va 13,2. Intensiv sug'orma dehqonchilik rivojlangan xududlarda fermer xo'jaliklarining yer maydoni kam, ishlovchilar soni esa ko'proq bo'ladi. Jumladan, Kasbi tumanida har bir fermer xo'jaligiga 6,3 gektar yer biriktirilgan bo'lib, ularda o'rtacha 13,9 kishi ishlaydi, vaholanki, Dehqonobodda bu ko'rsatkichlar 111,2 va 3,8 kishini tashkil kiladi. Shu o'rinda e'tiborga olish zarurki, mamlakatimizda olib borilayotgan fermer xo'jaliklarini optimallashtirish siyosatini amalga oshirish natijasida ularning soni keskin

qisqardi, biriktirilgan yer maydonlari esa keskin ko'paydi²⁹.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun tabiiy sharoit qulay. Iqlimi keskin kontinental bo'lib, sovuqsiz davr 210-242 kunni, ijobiy temperaturalar yig'indisi 4760-5200 gradusni tashkil etadi³⁰. Viloyat ancha katta yer resurslariga ega. Qishloq xo'jaligi uchun yaroqli bo'lgan yerlar 2194 ming ga bo'lib, shundan 698,3 ming gektari haydalgan yerlardir, 449 ming gektarida sug'orilib deqonchilik qilinadi. Qolgan 1430,8 ming ga. maydondan yaylovlar sifatida foydalaniladi.

Viloyatdagi aksariyat (davlat va jamoa) xo'jaliklar asosan paxtachilikka, shuningdek donchilik, meva va uzumchilik, sutchilik, sut-go'sht yetishtirishga ixtisoslashgandir.

Xududiy ixtisoslashuv jihatidan qaralganda, Yuqori zonada yoki Shahrisabz gurux tumanlarida paxtachilik, bog'dorchilik va gallachilik, Quyi zonada, ya'ni Qarshi dashtida paxtachilik rivojlangan. Chorvachilik, xususan, qo'y va echkilarni boqish cho'l va tog'oldi hududlarda ko'proq tarqalgan. Viloyat markazi hamda Shahrisabz atrofida shahar atrofi qishloq xo'jaligi, sabzavot va kartoshka, kukatlar yetishtirish bilan shug'ullanadi.

Dehqonchilik viloyat qishloq xo'jaligida bosh tarmoq hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida olinayotgan yalpi mahsulotning 70%i dehqonchilikdan keladi. Tuproqning unumdorlik darajasi hosildorlikka ta'sir ko'rsatadigan asosiy omildir. Shuning uchun qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida tuproqning meliorativ holatini yaxshilash va uning unumdorligini oshirish muhim agronomik tadbir hisoblanadi. Qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori katta ahamiyatga ega. Viloyatda sho'rlangan yerlarning xarakteriga qarab kuzgi-qishki ishlar bilan birga yaxob suvini vaqtida berish katta iqtisodiy samara bermoqda. Mexanik tarkibi jihatidan og'ir bo'lgan soz tuproqlarda Shahrisabz, Kitob, Yakkabog' tumanlari xo'jaliklarida yaxob suvlarni yanvar-fevral oylarida

²⁹ Набиев Э., Қаюмов А. Ўзбекистоннинг иқтисодий салоҳияти. – Т.: Университет, 2000. 78 б.

³⁰ Abdullayev S.I. Axmedov R. Qashqadaryo viloyatining iqlim xususiyatlari. - Ilm-fan va taraqqiyot. Qarshi, 2005. 45 b.

beriladi. Mexanik tarkibi o'rtacha va yengil bo'lgan tuproqlarda yaxob suvi mart-aprel oylarida, ekishdan 10-15 kun oldin beriladi. Bunday sug'orish viloyatning cho'l rayonlarida ham olib boriladi. Chunki yaxob suvi erta berilsa, ekish vaqtiga kelib tuproqning ustki qatlami qurib qoladi. Dehqonchilikda mineral va mahalliy o'g'itlarni ishlatish o'simliklarni yaxshi oziqlanishi va normal o'sishiga, mahsulot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Dehqonchilikda almashlab ekishning roli ham katta. Viloyatda paxtakor xo'jaliklarda almashlab ekishni to'g'ri joriy qilish paxta hosilini oshirdi, jamoa chorvachiligi uchun mustahkam yem-xashak bazasini yaratish imkoniyatini berdi. Paxta asosan beda bilan almashlab ekilmoqda. Chunki beda o'stirilgan tuproqda juda ko'p miqdorda chirindi bo'ladi.

Viloyat dehqonchiligida paxta, don yetishtirish, meva va uzumchilik, poliz va sabzavot mahsulotlari, xashaki ekinlar asosiy tarmoqlarni tashkil etadi.

Donli ekinlar. Viloyat dehqonchiligida donli ekinlarning ahamiyati juda katta. Ular oziq-ovqat sanoatida va chorva mollari uchun lzuqa tayyorlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Donli ekinlarga bug'doy, sholi, makkajo'xori, arpa, jo'xori, tariq, suli va javdar kiradi. Qashqadaryo viloyatida donli ekinlardan eng ko'p bug'doy arpa va makkajo'xori ekiladi. Galla va paxta yetishtirish bo'yicha Qashqadaryo respublikamizda birinchi o'rinda turadi.

Paxtachilik. Qishloq xo'jaligining ikkinchi ekini - paxta 163 ming gektarni egallaydi (2008 yilda 173 ming ga, 2000 yilda 150 ming ga)³¹. Paxta yetishtirish viloyat dehqonchiligining asosini tashkil etadi. Dehqonchilikda daromadning asosiy qismi paxtachilikdan keladi. Viloyatdagi aksariyat davlat va jamoa xo'jaliklari paxta yetishtirishga ixtisoslashtirilgan. 1990 yilda viloyatda 220,3 ga maydonda paxta ekilib, 522,5 ming tonna hosil olindi, hosildorlik 23,7 ts.ni tashkil etdi. 2013 yilda 424 ming tonna paxta yetishtirilgan, hosildorlik - 26,0 ts.ga ni tashkil etdi. Qashqadaryo viloyati yalpi paxta mahsuloti bo'yicha

³¹ Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. Т. 2014. 298 б.

O'zbekistonda birinchi, ingichka tolali paxta yetishtirish bo'yicha esa Surxondaryo viloyatidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Viloyatning Nishon, Kasbi, Koson, U.Yusupov hamda Qarshi tumanlarida 300 ming tonnadan ortiq paxta yetishtirilmoqda. Kitob,Shahrisabz,Yakkabog', Chiroqchi va Qamashi tumanlarida o'rtacha tolali paxta navlaridan yuqori hosil olinmoqda. O'rta tolali paxtaning "108-F","Yulduz", "AN-410", "Toshkent-3" navlari ekilmoqda. Ingichka tolali paxta cho'l zonasida Kasbi, Muborak, U.Yusupov, Nishon hamda Koson tumanlarining xo'jaliklarida ekilmoqda. Ingichka tolali paxtaning "Termiz-16","Buxoro-6", "Qarshi-8" navlari ekilmoqda. Paxta asosiy texnika ekini bo'lib, 100 kg paxtadan o'rtacha 33-35 kg paxta tolasi, 55-57 kg chigit, 5-8 kg paxta chiqiti olinadi. 1 kg paxta tolasidan 10-12 m.chit ishlab chiqariladi. 100 kg chigitdan 19 kg yog', 47-48 kg kunjara ishlab chiqiladi. Keyingi yillarda paxtaning yalpi mahsuloti intensiv dehqonchilik xo'jaligi asosida ko'paymoqda. Viloyatda paxta ekiladigan maydonlarni qisqartirilishi natijasida meva va sabzavotchilikka ixtisoslashgan brigadalar, zvenolar tashkil qilinmoqda, aholiga shaxsiy tomorqalar berilmoqda. Qashqadaryo kelajakda ham O'zbekistonning asosiy paxta yetishtiruvchi viloyati bo'lib qoladi.

Kartoshkachilik. Qashqadaryo viloyatida 1,5-2 ming ga maydonda kartoshka ekiladi. O'rtacha har yili 10-15 ming tonna hosil yetishtirilib, hosildorlik 60-70 ts.ni tashkil etmoqda.Kartoshka tarkibida sifatli oqsil va vitaminlar bo'lganligi uchun muhim oziq-ovqat mahsuloti hisoblanadi. Sanoatda kartoshkadan spirt, kraxmal, glyukoza va boshqa mahsulotlar olinadi. Kartoshka Shahrisabz,Kitob va Yakkabog' tumanlarining tog' mintaqasida ixtisoslashgan xo'jaliklarida ekiladi.Yetishtirilgan kartoshka viloyat aholisini kartoshkaga bo'lgan talabini qondira olmaydi. Ilg'or agrotexnikani joriy qilinishi natijasida hosildorlik keyingi yillarda bir qadar oshmoqda. Kartoshka ekish muddatiga qarab erta pishar (70-80 kunda), o'rta pishar (90-100 kunda) va kech pishar (110-120 kunda) navlarga bo'linadi. Viloyatda kartoshkaning erta pishar navlari ekiladi. Bu navlar fevral oyining ikkinchi yarm iva mart oyining boshlarida

ekiladi. Kelajakda kartoshka yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklarni sonini ko'paytirish, yuqori hosildorlikka erishish zarur.

Meva va uzumchilik. Viloyatda meva va uzum yetishtirishni ko'paytirishning asosiy yo'li meva va tok ekiladigan maydonlarni kengaytirish hamda ularning hosildorligini oshirishdan iborat. Meva-uzum tarkibida kishi organizmi uchun juda zarur bo'lgan qand, organik kislotalar, oqsil, yog', mineral tuzlar, vitaminlar va boshqa moddalar mavjud. Meva, rezavor-meva va uzum mazali hamda shirin bo'lganidan ovqatni yaxshi hazm bo'lishiga yordam beradi. Qashqadaryo viloyatida mevazor bog'larning maydoni 20 ming ga (1989 yil) bo'lib, shundan 10,5 ga dagi mevazor bog'lar hosil bermoqda. Tokzorlarning maydoni 13,1 ming g. shundan 85 ming gektari hosil beradi. Viloyat respublikada yetishtiriladigan mevaning 11% ni, uzumning 8% ni beradi va meva yetishtirishda Surxondaryo, Andijon, Buxoro viloyatlaridan keyin to'rtinchi o'rinni egallaydi.

Kitob tumanidagi Navoiy, "Varganza", "Palandara", "Zarafshon", "Qishliq", Shahrisabz tumanidagi "Moskva", Yakkabog' tumanidagi "Yakkabog'", "Turon", "Qizil-suv", Qarshi tumanidagi Temir Mirzaev nomli davlat xo'jaliklari meva va uzum yetishtirishga ixtisoslashgan.

Meva va uzumchilik asosan viloyatning tog'li xo'jaliklarida yaxshi rivojlangan. Qashqadaryo serhira uzum, qora anjir va orombaxsh anori bilan mashhur. Kitob tumanida anor yetishtirishga ixtisoslashgan "Varganza" davlat xo'jaligi mavjud. Bu xo'jalik anori nafaqat O'zbekistonda, balki undan tashqarda ham mashhur.

Sabzavotchilik va polizchilik. Insonning kundalik iste'molida va oziq-ovqat sanoatida sabzavotning ahamiyati katta. Sabzavot ekinlari tarkibida uglevodlar, oqsil, organik kislotalar, mineral tuzlar, vitaminlar, qand va boshqa moddalar bo'ladi. Sabzavot ekinlaridan karam, pomidor, bodring, sabzi, piyoz va turli xildagi ko'katlar ko'p ekiladi.

Poliz ekinlariga qovun, tarvuz va qovoq kiradi. Viloyat bo'yicha 8,3 ming ga maydonda poliz ekinlari ekilib, 45,8 ming tonna hosil olindi, hosildorlik 54,8 ts.ni tashkil etdi. Poliz ekinlari tarkibida inson organizmi uchun zarur bo'lgan uglevodlar va qandning ko'p bo'lishi bilan ajralib turadi. Qashqadaryo qovun-tarvuzi o'zining shirinligi bilan qadimdan nom chiqargan. Tarvuzning "Qo'ziboy", "Hayirtqora", "Samarqand", qovunning "Amiriy", "Shakarpalak", "Qoraqand", "Umirvoqi", "Ko'kcha", "Qariqiz" navlari ekiladi. Viloyatda sabzavot va poliz yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklar talaygina. Nishon tumanidagi "SHirinobod" davlat xo'jaligi poliz mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklar ichida salmoqli o'rin tutadi.

Xashaki ekinlar. Xashaki ekinlar ham viloyat dehqonchiligida yetakchi tarmoqlardan biri bo'lib, ular qishloq xo'jaligi hayvonlari uchun xilma-xil to'yimli ozuqa hisoblanadi. Viloyatda 3,9 ming ga maydonda (1990 yil) yem-xashak ekinlari ekildi. Xashaki ekinlardan yo'ng'ichqa, sul, arpa, tariq, raps va xashaki lavlagi ekiladi. Xashaki ekinlar yetishtirishni ko'paytirmasdan turib, chorvachilikni ozuqa bazasini mustahkamlash va uni rivojlantirish mumkin emas. Xashaki ekinlar tuproqni chirindi bilan boyitadi, uning suv va havo o'tkazish qobiliyatini oshiradi, fizikaviy xossalarini yaxshilaydi, mikrobiologik faoliyatini kuchaytiradi. Xashaki ekinlardan silos, senaj tayyorlanadi, mevasi va poyasi yanchilib, un tayyorlanadi, ildizi chorva mollariga ozuqa sifatida beriladi. Viloyatda Dehqonobod nohiyasidagi Hamid Olimjon nomli, "Oqbosh", Oybek nomli Ibn Sino nomli va "Boshcharbog" davlat xo'jaliklari beda urug'i yetishtirishga ixtisoslashgan. Bedaning "Toshkent-1", "Toshkent-1728" navlari ekilmoqda.

Chorvachilik. Viloyat qishloq xo'jaligining dehqonchilikdan keyingi tarmog'i bo'lib, aholini sut, go'sht, tuxum, baliq kabi oziq-ovqat mahsulotlari, sanoatni esa jun, qora ko'l teri, ipak va boshqa xom ashyo bilan ta'minlaydi. Viloyatda chorvachilikni yanada rivojlantirish qishloq xo'jaligi oldida turgan birinchi galdagi vazifalardan biridir. Buning uchun chorvachilikni mustahkam

yem-xashak bazasini barpo qilish va yem-xashakdan to'g'ri foydalanish, barcha turdagi chorva mollari, shuningdek parrandalar sonini ko'paytirish, mahsuldorlikni oshirish lozim.

Hozirgi paytda viloyat O'zbekistonda yetishtiriladigan go'shtning 8,2%ini, sutni 8,6%ini, junning 16%ini va qorako'l terining 19%ini yetkazib bermoqda³². Viloyatda chorvachilik mahsulotlari yetishtirish yildan-yilga ortib bormoqda.

Chorvachilik fermalarining mexanizatsiyalashtirilishi va avtomatlashtirishi, fermer xo'jaliklarning rivojlantirilishi chorvachilik mahsulotlari ko'payishiga olib keladi.

Chorvachilikni rivojlantirish avvalo chorva tuyog'ini ko'paytirish, uni parvarish qilishni yaxshilash, mahsuldor zotlarni yaratish, yem-xashak bazasini mustahkamlash va chorva mollarini to'yimli ozuqalar bilan ta'minlash kabi tadbirlar bilan bog'liq. Go'sht va sut mahsuloti yetishtirishni ko'paytirish avvalo xo'jaliklardagi mollar zotini yaxshilashga va ularni boqish sharoitiga uzviy bog'liqdir. Chorvachilikni ixtisoslashtirish chorva mollari tuyog'ini ko'paytirishni tezlashtiradi va chorvachilikning ko'pgina sohalarida ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish uchun zamonaviy texnika bilan qurollantirish imkonini beradi. Chorvachilikni rivojlantirish jamoa chorvachiligini, shuningdek aholi ixtiyoridagi shaxsiy mollarni ko'paytirish, yem-xashak bilan ta'minlashga ham bog'liq.

Qoramolchilik. Viloyat chorvachiligida qoramolchilik yetakchi tarmoq bo'lib uning umumiy chorva mahsulotlari hajmida go'sht va sut yetishtirishdagi ulushi katta. Jami qoramollarning soni 400 ming boshga yaqin bo'lib, O'zbekistonda qoramollarning soni jihatidan Farg'ona viloyatidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Go'sht va sut yetishtirishni ko'paytirishda viloyat xo'jaliklarida ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, konsentratsiyalash va

³² Солиев А., Назаров М., Курбонов Ш. Ўзбекистон ҳудудлари ижтимоий-иқтисодий ривожланиши. – Т.: «MUMTOZ SO'Z», 2010. 83 б.

kooperativlashtirish ishlari yo'lga qo'yilgan. Qoramolchilik ikki yo'nalishda sut va sut-go'sht yetishtirishga ixtisoslashtirilgan.

Qarshi tumanidagi "Mang'it", Qamashi tumanidagi "Rassvet" jamoa xo'jaligi go'sht yetishtirishga ixtisoslashgan yirik xo'jaliklar hisoblanadi.

Sut-go'sht yetishtirishga Kasbi tumanidagi Alisher Navoiy nomli, Qarshi tumanidagi "Nasaf", Nishon tumanidagi Usmon Yusupov nomli davlat xo'jaliklari ixtisoslashgan. Bu xo'jaliklarda "Qizil-cho'l" , "Simmental" zotli qoramollar boqiladi. Qoramolchilikni rivojlantirish yem-xashak yetishtirishni ko'paytirish, ularning to'yimlilikini oshirishni talab qiladi. Yem-xashak yetishtirishdagi asosiy vazifa har gektar maydondan iloji boricha ko'proq arzon yem-xashak yetishtirish, ularni tayyorlashda, saqlashda nobudgarchilikka yo'l qo'ymaslikdan iborat.

Qo'ychilik. Qashqadaryo viloyatida qo'ychilik ancha rivojlangan. Jun yetishtirish bo'yicha viloyat respublikada birinchi o'rinda, qorako'l teri yetishtirishda Samarqand viloyatidan keyingi ikkinchi o'rinda turadi. Qarshi cho'li yaylovlarida o'tlatib boqish va asrash uchun yaxshi moslashgan qorako'l qo'ylari boqiladi. Qorako'l qo'ylarining asosiy mahsuloti jahon bozorida yuqori baholanadigan qorako'l terisidir³³.

Viloyatning Muborak tumanidagi Muborak, U.Yusupov tumanidagi G'ofur G'ulom nomli, Nishon tumanidagi Nishon, G'uzor tumanidagi G'uzor davlat naslchilik zavodlari qorako'lchilikka ixtisoslashgan yirik xo'jaliklardir.

Viloyatning tog'li va tog' oldi rayonlarida go'sht-yog' mahsuldorligi bo'yicha mashhur bo'lgan "Hisori" va "Jaydari" qo'ylarni zotlari boqiladi. Bu qo'y zotlari Kitob va Shahrisabz tumanlaridagi ixtisoslashgan xo'jaliklarda go'sht resurslarini yanada ko'paytirish maqsadida boqilmoqda.

Cho'chqachilik. Qashqadaryo viloyatida go'sht yetishtirish uchun 43,1 ming bosh cho'cha boqiladi. Viloyatda cho'chqachilikka ixtisoslashgan yirik

³³ Солиев А., Назаров М., Курбонов Ш. Ўзбекистон ҳудудлари ижтимоий-иқтисодий ривожланиши. – Т.: «MUMTOZ SO'Z», 2010. 88 б.

xo'jalik Koson tumanidagi "Qorabayir" davlat xo'jaligidir. Bu xo'jalik har yili o'rtacha 1000 tonnadan ortiq cho'chqa go'shti yetkazib bermoqda. Bundan tashqari Shahrisabz tumanidagi Kalenin nomli jamoa xo'jaligida ham yirik cho'chqachilik firmasi mavjud bo'lib, har yili 400 t.ga yaqin cho'chqa go'shti yetishtirmoqda.

Yilqichilik. Viloyatda 3783 bosh (1990 yil) yilqi bor. Qashqadaryo qadimdan o'zining zotli otlari bilan dong taratgan. Qorabayir otlari to'g'risida Gamilton-Smit 1841 yilda Edinburg shahrida nashr qilingan "Otlar" kitobida shunday deb yozgan edi. "Qorabayir-zoti, u Samarqand va Shahrisabz atroflarida uchratiladigan juda qimmatli otdir". Yilqichilik viloyatda Yakkabog' tumanidagi "Hisor", Qamashi tumanidagi "Langar" nomli davlat xo'jaliklari ixtisoslashgan. Keyingi yillarda otlardan foydalanishning ilmiy jihatdan asoslangan yangi formasi vujudga keldi.

Yilqichilik meditsina va veterinariya uchun shifobaxsh zardob va vaktsina tayyorlash uchun qon plazmasi yetkazib beradigan asosiy sohaga aylandi. Yilqilar sonining kamayishi natijasida viloyatimizning ko'pchilik xo'jaliklarida ishlatiladigan va miniladigan otlarga ehtiyoj sezila boshlandi. Yilqi qishloq xo'jaligida, geologik qidiruv ishlarida, ilmiy ekspeditsiyalarda foydalaniladi. Yilqi go'shti va sutidan sanoat korxonalarida qazi, shifobaxsh qimiz tayyorlanadi.

Parrandachilik. Chorvachilikning serdaromad tarmog'i bo'lib, u go'sht, tuxum, qush pati yetkazib beradi. Har yili parrandalar o'z vazniga nisbatan 5-6 martadan ortiq mahsulot beradi. Viloyatda 2,4 mln bosh (1989 yil) parranda bo'lib, har yili o'rtacha 125-1258 mln dona tuxum olinmoqda.

Qarshi parrandachilik fabrikasi, Qamashi broyler fabrikasi, Chiroqchi tumanidagi parrandachilik davlat xo'jaligi, Shahrisabz parrandachilik fabrikasi parranda mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan xo'jaliklardir. Qarshi parrandachilik fabrikasi har yili o'rtacha 250 tonna parranda go'shti, 27 mln dona tuxum yetkazib bermoqda.

Ipakchilik va asalarichilik. Ipakchilik ham viloyatda qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biridir. Viloyatda 1990 yili 2464 t.pilla yetishtiriladi. Qarshi tumanida viloyatda yagona ipakchilikka ixtisoslashgan davlat xo'jaligi tashkil qilingan. Bundan tashqari viloyatning ko'pchilik xo'jaliklaridap ipak qurti boqiladi. Ipakchilikning taraqqiyoti qurtning asosiy ozuqa manbai bo'lgan tutchilik bilan bog'liq.

Ipakchilik Shahrisabz, Kitob, Yakkabog' va Qarshi tumanlari bilan bir qatorda Qarshi cho'lidagi xo'jaliklarda ham jadal rivojlanmoqda.

Viloyat chorvachiligida asalarichilikning ham o'z o'rnini bor. Viloyat bo'yicha har yili o'rtacha 150-170 t.asal yetishtiriladi. Kitob tumanidagi "Kitob", Dehqonobod tumanidagi Ibn Sino nomli davlat xo'jaligi, Shahrisabz nohiyasidagi G'ani Boboyorov nomli jamoa xo'jaliklarida asalarichilik yetakchi tarmoq bo'lib, viloyatimizda olinadigan asalning katta qismi shu xo'jaliklarida yetishtiriladi.

Qashqadaryo viloyatida keyingi yillarda baliqchilik ham rivojlantirilmoqda. Chimqo'rg'on suv ombori va Qarshi tumanidagi baliqchilik xo'jaliklari viloyat aholisini tirik baliq bilan ta'minlab turibdi³⁴. Go'sht yetishtirishni ko'paytirishda baliqchilik tarmog'i katta rol o'ynaydi. Kelajakda viloyatda mavjud bo'lgan barcha suv omborlarida bu tarmoqni rivojlantirish zarur.

³⁴ Qashqadaryo viloyati istiqlol yillarida / Mualliflar guruhini rahbari A. Erkaev. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007. 21 b.

II bob. Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatining demografik holati va madaniy hayoti.

2.1. Qashqadaryo viloyatining demografik holati va mustaqillik yillarida unda sodir bo'lgan o'zgarishlar.

Oilani jamiyat taraqqiyoti davomidagi o'rni, tarixiy rivojlanishi, aholining takror barpo bo'lishidagi asosiy faoliyati va uning o'zgarib borish omillari va oqibatlari o'rganilib, kelajakda rivojlanishining asosiy yo'nalishlari aniqlanadi.

Mamlakatimizda aholi muntazam ravishda turli sur'atlarda ko'payish tendensiyasiga ega. Butun mamlakatimizda va uning mintqa va viloyatlarida aholi ko'payishining asosini tug'ilish tashkil etadi. O'zbekistonda 1989-yil tug'ilish har ming aholiga 33,3 kishini tashkil etgan bo'lsa, 2002-yil bu ko'rsatkich 21,0 % ga tushib qoldi, bu yillarda tug'ilish darajasi 12,3% ga kamaydi. Viloyatlar bo'yicha ham tug'ilish koeffitsiyentining kamayganligini ko'rish mumkin. Masalan, tug'ilish darajasi doimo yuqori bo'lib kelgan Qashqadaryo (40%) viloyatida ham bu holat ayni paytda birmuncha pasaydi³⁵.

Qashqadaryo viloyati tumanlarida aholining tug'ilish ko'rsatkichlari har 1000 kishiga 25,0 kishidan (Yakkabog' tumani) 28,0 kishigacha (Chiroqchi tumani) o'zgaradi (2-jadval).

Qashqadaryo viloyatida 1989–2010-yillarda tug'ilishning kamayishi kuzatildi. Mazkur yillarda tug'ilishning kamayish tezligi o'rtacha yiliga 1,07 punktni tashkil etadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, viloyatda tug'ilish darajasi yuqori bo'lishiga qaramasdan, uning kamayish sur'ati boshqa viloyatlarga nisbatan ildamroq kechmoqda.

Mavjud statistik ma'lumotlarning tahlili asosida aholi tabiiy harakatining hududiy xususiyatlariga ko'ra O'zbekiston viloyatlarini uch guruhga–tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan (17,0% dan ortiq) hududlarga (Qashqadaryo,

³⁵ Egamova D.Tojiyeva Z.Saidova Z. O'zbekistonning janubiy hududlaridagi demografik holat (Qashqadaryo viloyati misolida) || Geografiya va qadriyatlar. T.,2001. 34 b.

Surxondaryo, Jizzax), tugʻilish koʻrsatkichi oʻrtacha boʻlgan (15,0 – 17,0%) Buxoro, Sirdaryo, Namangan viloyatlari va Qoraqalpogʻiston Respublikasi va tugʻilish darajasi past (15,0% dan kam) boʻlgan hududlarga (Navoiy, Fargʻona, Andijon va Toshkent viloyatlari) ajratish mumkin. Demak, bu koʻrsatkich boʻyicha Qashqadaryo viloyati hozirgi paytda mamlakatimizda “yetakchilik” qilmoqda³⁶.

Qashqadaryo viloyatida ham mamlakatimizning boshqa viloyatlaridagi kabi tugʻilish darajasi qishloqlarda shaharlardagiga nisbatan yuqori. Tugʻilish darajasi 1996-yilda 33,1%, 2003-yilda 23,5%, 2009-yilda 24,3%, 2010-yilda 24,9% ni tashkil etgan.

Qashqadaryo viloyati hozirgi kunda ham tugʻilish koefitsiyentining yuqoriligi bilan mamlakatimizda oldingi oʻrinlarni egallab kelmoqda. Bunga asosiy sabab, aholisining asosiy qismini qishloqlarda yashashi, shaharlashuv jarayonining sust borishi, aholining jinslar orasidagi farqning kamligi, migratsion jarayonning oʻta sustligi va boshqa demografik holatlar sabab boʻlmoqda. Ammo, butun mamlakatdagi kabi Qashqadaryo viloyatida ham tugʻilish va tugʻilish yoshi koefitsiyenlarining kamayish tendensiyalari kuzatiladi. Shuningdek, tugʻilgan bolalarning asosiy qismi nisbatan yosh ayollarga toʻgʻri keladi.

Aholiga tibbiy yordam koʻrsatishning yaxshilanishi, sogʻliqni saqlash tizimida yangi islohotlar va texnologiyalarning joriy qilinishi, shubhasiz oʻlim holatining kamayishiga olib keladi.

Oʻzbekistonda oʻlim koʻrsatkichi mintaqalar boʻyicha turlicha. Buning oʻziga xos sabablari bor. Jumladan, mamlakatda 1989-yilda oʻlim koefitsiyenti 6,3% ni tashkil etgan boʻlsa, 2004-yilda bu koʻrsatkich 5,0 ga tushdi, yaʼni oʻlim holati bu davrda 1,3% ga qisqardi. Qashqadaryo viloyatida oʻlim koefitsiyenti

³⁶ Murodova D.S. Qashqadaryo viloyatida aholi oʻsishining xususiyatlari. “Hozirgi zamon geografiyasi: Nazariya va amaliyot”. Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallari - T., 2006.

1996-yilda 5,2%, 2003-yilda esa 4,1%, bu ko'rsatkich shaharlarda 5,0%, qishloqlarda 5,3%, 2003-yilda 4,4% ni tashkil etdi.

O'zbekistonning viloyatlari darajasida qaralganda deyarli viloyatlarda o'lim koeffitsiyenti kamayish tendensiyasiga ega.

Qashqadaryo viloyatida ham o'lim koeffitsiyenti 1997-yilda 4,63% dan 2004-yilda 4,0% ga, 2010-yilda 3,9% ga kamaygan.

O'lim darajasiga ko'ra Qashqadaryo viloyatida o'lim holati past (5,0% dan kam) bo'lgan hududlarga kiradi.

Statistik ma'lumotlarning tahlili boshqa mintaqalarga nisbatan eng kam o'lim Qashqadaryo viloyatiga to'g'ri keladi. Qashqadaryo viloyatida ham tug'ilish va tug'ish yoshi koeffitsiyentining kamayishi kuzatiladi. Shuningdek tug'ilgan bolalarning asosiy qismi nisbatan yosh ayollarga to'g'ri keladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishishi tufayli mamlakat aholisining etnik xususiyatlari e'tiborga olingan holda demografik siyosat yuritish imkoniyatlari vujudga keldi. Aholining tabiiy ko'payishi aholi sonining o'sishida asosiy manbadir. Qashqadaryo viloyatida 1991-1999-yillarda aholi sonining ko'payishi tabiiy ko'payish hisobiga bo'lmoqda³⁷. Viloyatda aholi soni 1999-yilda 1989-yildagiga nisbatan deyarli 1,4 marta ko'paydi. 1999-yilda viloyat aholisining soni 2123,0 ming, 2001-yilda 2257,0 ming, 2002-yilda 2298,0 ming, 2003-yilda 2339,7 ming, 2004-yilda 2381,8 ming³⁸, 2008-yilda 2506,2 ming kishi va 2009-yilda 2589,6 ming kishiga yetdi. Qashqadaryo viloyati aholisining o'rtacha yillik o'sishi 1990-1999-yillarda 58,1 ming kishi va 1996-2009-yillarda 46,6 ming kishini tashkil qildi.

Tabiiy o'sish 1991-yilda 37,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 1999-yilda 17,7% ni, 2001-yilda 19,1 va 2004-yilda 18,7 % ni tashkil etdi. Shu yili Qashqadaryo viloyati aholining tabiiy o'sishiga ko'ra viloyatlar orasida birinchi o'rinni

³⁷ Murodova D.S. Qashqadaryo viloyatida aholi o'sishining xususiyatlari. "Hozirgi zamon geografiyasi: Nazariya va amaliyot". Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallari - T., 2006.

³⁸ Murodova D.S. Qashqadaryo viloyatida aholi tabiiy ko'payishining xususiyatlari. Geografiya. fanining nazariy va amaliy masalalari. T., 2007.

egallab kelgan Surxondaryo viloyatini (18,1 %) ham ortda qoldirdi. 2009-yilda tabiiy o'sish 20,5% ni tashkil etdi va tabiiy o'sishga ko'ra viloyat 4-o'rinni egallab turibdi. Qashqadaryo viloyati aholisi asosan tabiiy ko'payish hisobiga o'smoqda. 1991 – 2010-yillarda viloyatda aholi soni 1697.7 ming kishidan 2671,0 ming kishiga yetdi, yoki tabiiy ko'payish hisobiga bu yillarda 993,3 ming kishiga o'sdi.

Mamlakatimizdagi kabi Qashqadaryo viloyatida ham aholining mutloq soni o'sib borayotganligiga qaramasdan yillik o'sish sur'atlari sekinlashmoqda. Aholi soni o'sishining pasayib borayotganligi asosan tug'ilishning pasayishi hisobiga bo'lmoqda. Tabiiy o'sish 1991-yilda har 1 000 kishiga 37,7 kishini tashkil etgan bo'lsa, 1999-yilda 17,7 kishini, 2001-yilda 19,1 kishi, 2002-yilda 18,7 kishini, 2003- yilda 18,8 kishini, 2005-yilda 18,1 kishini va 2010-yilda 21,0 kishini tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyatida keyingi yillarda aholining tabiiy ko'payish darajasi o'linga nisbatan tug'ilish sur'atlarining kamayishi tufayli biroz kamaydi. Tabiiy ko'payishning eng past darajasi 1999-yilda 17,7% ni va 2006-yilda 17,9% kuzatildi.

Keyingi yillarda O'zbekistonning barcha viloyatlarida tug'ilish darajasining qisqarishi tabiiy ko'payishning pasayishiga sabab bo'lmoqda. 1989 yilda mamlakatda tabiiy ko'payish 27,0 % ni tashkil etgan, 2003-yilda esa bu ko'rsatkich 14,5% ga teng bo'ldi. Bu yillarda tabiiy ko'payish darajasi 12,5% ga kamaygan. Bunday holat Qashqadaryo viloyati uchun ham xos (18,7%).

Keyingi yillarda tug'ilish darajasining qisqarishi tabiiy ko'payishning pasayishiga sabab bo'lmoqda. 1996-yilda viloyatda tabiiy ko'payish 27,9%, 2003-yilga kelib bu ko'rsatkich 19,4% ni tashkil etgan. Shu yillarda tabiiy ko'rsatkich darajasi 8,5 % ga kamaygan.

Tabiiy ko'payish darajasi bo'yicha Qashqadaryo viloyati tabiiy ko'payish koeffitsiyenti yuqori bo'lgan viloyatlar (Jizzax, Surxondaryo, Xorazm,

Samarqand, Qoraqalpog'iston Respublikasi) guruhiga mansub bo'lib, ularda aholining tabiiy ko'payish koeffitsiyenti 17,2 % dan ortiq.

O'zbekistonda aholi soni 1991-yilda 20,7 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa, 2010-yil boshida 28,08 mln. kishidan oshib ketdi. 2015 yilning so'nggi choragida esa, 31.5 mln. kishiga yetdi. Ushbu yillar davomida aholining o'rtacha o'sish darajasi 400 ming kishini tashkil etgan. Oldingi yillardagi sonlarga nisbatan tug'ilish sur'atlari o'sdi, o'lim ko'rsatkichlari esa kamaydi. Bu o'tgan asrning 80-yillaridagi yuqori tug'ilish sur'atlarining o'ziga xos demografik natijasi hisoblanadi. Keyingi 2-3 yil mobaynida tug'ilishning o'sishi o'sha yillarda tug'ilgan kishilarning oila qurishni boshlaganligidan dalolat beradi.

Keyingi yillarda O'zbekistonning barcha viloyatlarida tug'ilish darajasining qisqarishi tabiiy ko'payishning pasayishiga sabab bo'lmoqda. 1989 yilda mamlakatda tabiiy ko'payish 27,0% ni tashkil etgan bo'lsa, 2003-yilda esa bu ko'rsatkich 14,5% ga teng bo'ldi. Bu yillarda tabiiy ko'payish darajasi 12,5% ga kamaygan. Bunday holat Qashqadaryo viloyati uchun ham xos (18,7%).

Aholi tabiiy harakatining hududiy xususiyatlariga ko'ra O'zbekiston viloyatlarini 3 guruhga – tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan (17,0% dan ortiq) hududlarga (Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax), tug'ilish ko'rsatkichi o'rtacha bo'lgan (15,0-17,0%) Buxoro, Sirdaryo, Namangan viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi va tug'ilish darajasi past (15,0% dan kam) bo'lgan hududlarga (Navoiy, Farg'ona, Andijon va Toshkent viloyatlari)ga ajratish mumkin. Demak, bu ko'rsatkich bo'yicha Qashqadaryo viloyati mamlakatimizda "yetakchilik" qilmoqda.

Qashqadaryo viloyatida ham mamlakatimizning boshqa viloyatlaridagi kabi tug'ilish darajasi qishloqlarda shaharlardagiga nisbatan yuqori. 2003-yilda Qashqadaryo viloyatida aholining tabiiy o'sishi qishloqlarda 20,9, shaharlarda esa 14,4 % ni, 2008-yilda qishloqlarda 75,4% % ni, shaharlarda 24,6% % ni tashkil etadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishishi tufayli mamlakat aholisining etnik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda demografik siyosat yuritish imkoniyatlari vujudga keldi. Qashqadaryo viloyatida 1991-2010-yillarda aholi sonining ko'payishi tabiiy ko'payish hisobiga sodir bo'lmoqda. Viloyat aholi soni 1999-yilda 1989-yilga nisbatan deyarli 1,4 marta ko'payadi³⁹. 1999-yilda viloyat aholisining soni 2123,0 ming kishini, 2001-yilda 2257,0 ming kishi, 2002-yilda 2298,0 ming kishi, 2003-yilda 2339,7 ming kishi, 2004-yilda 2381,8 ming kishi va 2006-yilning boshida 26 407,8 ming kishiga yetdi. Shunday qilib, Qashqadaryo viloyati aholisining o'rtacha yillik o'sishi 1979-1989 yillarda 47,8 ming va 1990-1999 yillarda 58,0 ming kishi, 1999-2004 yillarda 58,5 ming va 2005-2010 yillarda 49,8 ming kishini tashkil qildi.

1995-2005 yillarda viloyatda aholi soni 1 917,9 ming kishidan 2 640,7 ming kishiga yetdi yoki tabiiy ko'payish hisobiga bu yillarda qariyb 722,8 ming kishiga o'sdi. 2005-2010-yillarda viloyat aholisining soni 110% ga yoki 2671,0 ming kishiga ko'paydi. Tabiiy o'sish 1991-yilda har 1 000 kishiga 37,7 kishini tashkil etgan bo'lsa, 1999-yilda 17,7 kishini, 2001-yilda 19,1 kishi 2002-yilda 18,7 kishini 2003-yilda 18,8 kishi, 2004-yilga 18,4 kishini , 2005-yilda 18,1 kishini va 2011-yilda 17,6 kishini tashkil etdi.

Tabiiy ko'payish darajasi bo'yicha Qashqadaryo viloyati tabiiy ko'payish koeffitsiyenti yuqori bo'lgan viloyatlar guruhiga (Jizzax, Surxondaryo, Xorazm, Samarqand, Qoraqalpog'iston Respublikasi) mansub bo'lib, ularda aholining tabiiy ko'payish koeffitsiyenti 17,2% dan ortiq⁴⁰.

Ta'kidlash joizki, aholi tabiiy harakati ko'rsatkichlari shahar va qishloq joylarda farq qiladi: qishloq joylarda tug'ilish shaharlarga nisbatan birmuncha yuqori. Buning bir qancha obektiv va subektiv sabablari mavjud. Jumladan, qishloqlarda ayollarning ijtimoiy hayotida bandligini past darajada bo'lishi, qo'l

³⁹ Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши (1989-2009 йй.). Монография. – Т.: «Fan va texnologiya», 2010. 55 б.

⁴⁰ Ўзбекистон Республикаси иктисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва курсаткичлари ҳамда 2011-2015 йилларга мулжалланган прогнозлари. - Т.: Ўзбекистон, 2011. 90 б.

mehnati ko'p talab qilinadigan qishloq xo'jaligida ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi, milliy an'analar davrlar davomida tug'ilishning yuqori bo'lishiga olib kelgan. Shahar aholisi tarkibida esa turli millat vakillarining ayollarning ijtimoiy hayotda faolligi, iqtisodiy-ijtimoiy omillarga bog'liq holda uy-joy muammosi va boshqa sabablari tug'ilish darajasining biroz past bo'lishiga olib keladi.

Shunday qilib, migratsiya ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylashtirilishi, ishlab chiqarish munosabatlarining xarakteri, ishchi kuchini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoni, uning taqsimlanishi, aholining joylashuvi, urbanizatsiya jarayoni, aholining ijtimoiy harakatchanligi, tabiiy harakati va uning tuzilishi bilan bog'liq ravishda kechadigan jarayondir. Mana shu aloqadorliklarni o'rganish migratsiya mexanizmini o'rganish imkonini beradi. Umuman jamiyat taraqqiyotida migratsiyaning roli ijobiydir. U ishchi kuchidan samarali foydalanish maqsadida yangi o'zlashtirilayotgan joylarga va tarmoqlarga qayta taqsimlash orqali, migrantlarning iqtisodiy-ijtimoiy ahvolini o'zgartirish bilan birga, ular ko'chib ketgan joyda qolgan aholi turmushiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Aholi migratsiyasi ko'chib kelgan hududning ham ko'chib ketgan hududning ham demografik vaziyatga, mehnat resurslari va aholining milliy tarkibida o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Migrantlar oqimi, shuningdek, aholining yosh-jinsiy tarkibida ham o'z aksini topadi. Buning natijasida mehnat resurslarining ortishi yoki kamayishi sodir bo'ladi.

2008-yil ma'lumotlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, viloyat tumanlari orasida Muborak va Yakkabog' tumanlarida migratsiya saldosi manfiy bo'lgan, qolgan deyarli barcha tumanlarda musbat (0-2%) ko'rsatkichga ega. 4-jadvalda 2008-yilda Qashqadaryo viloyatida aholi migratsiyasining holati ifodalangan. Bu davrda O'zbekistonda ham, viloyatda ham migratsiyaning saldosi manfiy bo'lgan. Qashqadaryo viloyatidan O'zbekistonning boshqa mintaqalariga (4629 kishi) va mamlakatlarga (1479 kishi) jami 6108 kishi migratsiya qilingan. Ayni

paytda viloyatda O'zbekistonning mintaqalaridan (2612 kishi) va boshqa mamlakatlardan (163 kishi) 2775 kishi kelgan. Provordida ko'rsatgichlari bo'yicha migratsiya saldosi manfiy bo'lgan, ya'ni migratsion o'sish koeffitsiyenti (1000 kishi hisobiga) -1,4 ni migratsion o'sish esa -1 878 kishini tashkil etgan.

O'zbekistonda aholi soni 1991-yilda 20,7 mln kishini tashkil etgan bo'lsa, 2010-yil boshida 28,08 mln. kishidan oshib ketdi. Shu yillar davomida aholining o'rtacha o'sish darajasi 400 ming kishini tashkil etdi. Oldingi yillardagi sonlarga nisbatan tug'ilish sur'atlari o'sdi, o'lim ko'rsatkichlari kamaydi. Bu o'tgan asrning 80 – yillaridagi yuqori tug'ilish sur'atlarining o'ziga xos demografik natijasi hisoblanadi. Keyingi 2 – 3 yil mobaynida tug'ilishning o'sishi o'sha yillarda tug'ilgan kishilarning oila qurishni boshlaganligidan dalolat beradi.

Aholining yosh va jinsiy tarkibi birinchi navbatda jamiyatning demografik holatiga bog'liq. Demografik holat aholining yoshi va jinsiy tarkibi nikohga kirish va nikohning bekor etilishi (ajralish), tug'ilish, o'lim va migratsiya kabi jarayonlarda ifodalanadi.

Aholi tarkibida ayollar va erkaklar salmog'ining tengligi, ya'ni mutanosibligi ularning nikohga kirishiga va oilalar tashkil qulay vaziyat yaratadi. Lekin, har doim ham jamiyatda erkaklar va ayollar salmog'i teng bo'lavermaydi. Statistika ma'lumotlariga qaraganda, 100 ta qiz bolaga nisbatan tug'ilgan o'g'il bolalar soni 104–107 tani tashkil etadi. O'g'il bolalar miqdorining qiz bolalarga nisbatan yuqoriligi ularning 15 – 20 yoshlarigacha saqlanib boradi. 20 yoshdan keyin esa jinslar nisbati tenglasha boshlaydi⁴¹. Chunki chaqaloqlar bolalik va o'smirlik davrida qiz bolalarga nisbatan o'g'il bolalar o'limi yuqoriroq bo'ladi.

Qashqadaryo viloyatining jami aholisining soni 2007-yilda 2506,2 ming kishini tashkil etgan. Ulardan erkaklar 1255,2 ming kishini va ayollar 1251,0

⁴¹ Egamova D.Tojiyeva Z.Saidova Z. O'zbekistonning janubiy hududlaridagi demografik holat (Qashqadaryo viloyati misolida) || Geografiya va qadriyatlar. T.,2001. 51 b.

ming kishi bo'lgan. Ushbu ko'rsatkichlar asosida jami aholi tarkibida erkaklar 50,08 % ni, ayollar esa 49,9% ni tashkil etganligini aniqlash mumkin.

Aholi jinsiy tarkibini o'rganishda aniq ko'rsatgich har 1000 ta erkaklarga nisbatan ayollar soni, yoki har 1000 ta ayollarga nisbatan erkaklar soni hisoblanadi. Ushbu ko'rsatgich orqali muayyan hudud (mamlakat, viloyat, tuman va b.) jami aholi sonining va aholi yosh guruhlari (0–2, 3–5, 6–7 ...)ning jinsiy tarkibi o'rganiladi. Masalan, yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, ayollar sonini erkaklar soniga bo'lib, natija 1000 ga ko'paytiriladi. 1959-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati yakuniga ko'ra erkaklar viloyat aholisi tarkibida 48,1% ni, ayollar 51,9% ni tashkil qilgan. 2004-yilda viloyat aholisining 48,9% ini erkaklar va 51,1% ini ayollar tashkil etadi. 2006-yilning boshida Qashqadaryo viloyatida har 1000 nafar ayolga 996 nafar erkak to'g'ri kelgan yoki ayollar erkaklardan 0,2% kamroq bo'lgan; 2008-yilning boshida esa har 1000 nafar erkakka 997 nafarga yaqin ayol to'g'ri keldi. Ana shunday uslub bilan alohida yosh guruhlari uchun ham ayollar va erkaklar nisbati aniqlanadi.

Aholi bo'yicha 2004-yil ma'lumotlarining tahlil shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida 18 – 19 yoshgacha bo'lgan aholi tarkibida erkaklar soni ayollar soniga nisbatan biroz ko'proq⁴². Ammo 19 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan; guruhlarga ayollarga, ayollarning salmog'i erkaklarga nisbatan 0,2 – 1,9 % ko'proq. Shuningdek, 70 yoshdan keyingi guruhda bu ko'rsatkich 5,9 % ga yetadi.

Aholining yosh tarkibi muhim demografik va iqtisodiy ko'rsatkich hisoblanib, u millat hamda mintaqalar va viloyatlarning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi.

Qashqadaryo viloyatida tabiiy o'sishning ancha yuqori bo'lishi aholining yosh tarkibiga ancha katta ta'sir ko'rsatadi. Viloyatda barcha aholi yosh bolalar

⁴² Murodova D.S. Qashqadaryo viloyatida aholi o'sishining xususiyatlari. "Hozirgi zamon geografiyasi: Nazariya va amaliyot". Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallari - T., 2006. 22b.

va o'smirlar salmog'ining ancha yuqori bo'lishini, mehnat resurslari sonining muttasil oshib borishini ta'minlayotir.

Viloyat aholisining tarkibida shahar bilan qishloq o'rtasida deyarli farq yo'q. Faqatgina pensiya yoshdan yuqori aholi orasida shahar aholisida ayollar biroz ko'proq miqdorni tashkil etadi.. Viloyatda tug'ilayotgan yoshlarda esa jinslarning nisbati nisbati deyarli tenglashib borayotir. Ammo, viloyatning tumanlari va shaharlari aholisining yosh va jinsiy tarkibi bilan bir-birlaridan ancha farq qiladi. Viloyatning Shahrisabz, Koson shaharlari aholisining tarkibida 0-15 yosh guruhlar ko'proq, Qarshi shahrida esa kamroq. Ammo, Kitob va Yakkabog'da yoshlar umumaholining ko'pchiligini tashkil etsa, mehnatga qobiliyatli aholi umumaholi foizida ko'pchilikni tashkil qiladi.

Ma'lumki, aholi manzilgohlari - aholi faoliyatining asosiy mashg'ulot maskanidir. Mamlakat va uning regionlarida industrial taraqqiyot, unda yashaydigan aholi tarkibi va miqdori bilan belgilanadi. Masalan, sanoat sust rivojlangan mamlakatlarda qishloq aholisi- asosiy, aksincha industrial taraqqiyotga erishgan mamlakatlarda shaharliklar soni ko'p bo'ladi.

Qashqadaryo viloyatida o'tgan asrning 70-yillargacha industrial taraqqiyotning o'ta past bo'lishi sababli uning aholisi tarkibida qishloqliklar ko'pchilikni tashkil qilgan. 70-yillardan keyin Qarshi cho'lini o'zlashtirish va yer osti zahiralaridan foydalanish sababli biroz industrial taraqqiyot jonlandi. Bu aholining yashash sharoiti va tarkibiga ta'sir qildi. Natijada viloyat aholisining 1959-yilda 86,7 %ini, 2006-yilda 75,4 %ini, 2010-yilda 43,4%ini qishloq aholisi tashkil etgan.

Hozirgi davrda jahonda yuqori sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan urbanizatsiya jarayoni, shu jumladan O'zbekiston hayotida shaharlar mavqei ortib borishiga qaramasdan, mamlakatimizning 63,9 %, janubiy viloyatlarning

75,4% aholisi qishloq joylarida istiqomat qilishmoqda⁴³. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Hammamizni boqadigan, ozuqa beradigan soha – qishloq xo'jaligi tarmog'idir. ...Farovon hayot qurmoqchi ekanmiz, oldimizga xalq turmushini yaxshilash... avvalo qishloq xo'jaligi, qishloq hayoti sohasidan boshlashimiz zarur". Chunki hozirgi paytda mamlakatimizdagi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolar aksariyat hollarda qishloqlar bilan bog'liq. Shuning uchun qishloqlarni ilmiy o'rganish - davrning eng dolzarb masalasidir. Qishloqlarning shakllanishi va rivojlanishi hududning tabiiy- iqtisodiy sharoitiga, qishloq xo'jaligining joylashishiga, transport va milliy iqtisodiyot tarmoqlariga bog'liq. Shunday ekan, Qashqadaryo viloyati qishloq muammosining yechimi uchun tabiiy-iqtisodiy geografik jihatdan yetarli imkoniyatlarga ega. Ayniqsa iqlimiy sharoiti qishloq xo'jaligida sug'orma va lalmikor dehqonchilik, sabzavot-polizchilikni rivojlantirish uchun qulay. Bu tarixiy davrlarda aholining asosiy qismi qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanib kelishiga ta'sir etgan. Binobarin Qashqadaryo viloyatidagi aholi manzilgohlarining 87,5 %ini qishloqlar tashkil etadi. hisoblanadi. Qolgan 12,5 %i shahar manzilgohlaridir.

Qarshi cho'lini o'zlashtirishi bilan qishloq aholisining soni yana tez ortdi. Bunda viloyat qishloq aholisining 1959-1996 yillarda o'rtacha yillik ko'payish sur'ati 5,60%ni va 1989-1996 yillarda esa 3,52%ni tashkil qilgan⁴⁴. Bu ko'rsatgichlar mamlakatimizda 3,26% va 2,98%ni, Surxondaryo viloyatida 6,08 va 3,52%ga teng bo'lgan. Umuman viloyat qishloq aholisining o'sish sur'ati bo'yicha mamlakatda Surxondaryodan keyin ikkinchi o'rindadir. Lekin mamlakatimizda va uning ko'pchilik viloyatlarida 1990-yillardan boshlab qishloq aholisining o'sish sur'ati shaharliklarga nisbatan ortib bormoqda. Buning oqibatida 1959-yilda viloyatdagi qishloq aholisining soni 441 ming

⁴³ Berdiqulova M.T. Qashqadaryo viloyati shahar aholi manzilgohlarining rivojlanish xususiyatlari. Zamonaviy geografiyaning muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Qarshi. 2010.

⁴⁴ Qurbonov P.R. Kichik hududlarda urbanizatsiyaning rivojlanishi (Janubiy O'zbekiston qishloq tumanlari misolida). O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti. 37-jild. T., 2011. 186.

kishini tashkil etgan bo'lsa, 2007-yilda bu ko'rsatkich 1892,4 ming kishiga yetdi.

Kelajakda mamlakatimizda sanoat korxonalari asosan qishloq joylarda quriladi. Bu yaqin o'n yillarda qishloqlarda urbanizatsiya jarayonini rivojlanishiga sezilarli ta'sir etadi. Bu qishloq aholisining ko'payishi umumiy aholi tarkibida ham ijobiy o'zgarishlarga olib keladi. Natijada hozir aholisi 3000 kishidan ortiq aholi yashaydigan qishloqlar shaharchalariga va shaharlarga aylanishi mumkin.

Qashqadaryo viloyati aholisining tarkibida qishloq aholisi barcha davrlarda shahar aholisiga nisbatan doimo yuqori bo'lgan. Shuningdek, qishloq aholisining tabiiy o'sishi ham ko'proq bo'lgan. 1990-yilda qishloqlarda 1210,7 ming kishi istiqomat qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2000-yilda 1615,7 ming kishini, 2006-yilda esa 1823,1 ming kishini tashkil etgan, ya'ni 2006-yilda qishloq aholisining salmog'i viloyat aholisining 75,4 % ini tashkil etdi.

Shuningdek, aholining tabiiy o'sishi ham qishloqlarda ko'proq bo'lgan. 1990-yilda qishloqlarda 1210,7 ming kishi istiqomat qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2000-yilda 1615,5 ming kishini, 2006-yilda esa 1859,0 ming kishini tashkil etgan, ya'ni 2006-yilda qishloq aholisining salmog'i viloyat aholisining 75,4 % ini tashkil etdi. Viloyatda seraholi 119 ta qishloqqa shaharcha maqomi berilgach, viloyat qishloq aholisining soni 1455,7 ming kishini yoki 57,7% ni tashkil etdi⁴⁵.

Aholi soni boyicha viloyatda Chiroqchi tumani oldinda turadi (2001 yildal 257 ming kishi, 2009-yilda 311,4 ming kishi). Bu tumanda viloyat aholisining 12 %i istiqomat qiladi. Shahrisabz tumanining aholisi (Shahrisabz shahrini qo'shib hisoblaganda) 2009-yilda 297,8 ming kishihi tashkil etadi. Chiroqchi va Shahrisabz tumanlarida viloyat aholisining qariyb 1/4 qismi yoki 23,5 %i

⁴⁵ Qurbonov P.R. Kichik hududlarda urbanizatsiyaning rivojlanishi (Janubiy O'zbekiston qishloq tumanlari misolida). O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti. 37-jild. T., 2011. 19 6.

istiqomat qiladi. Chiroqchi tumanida aholining oʻrtacha zichligi har 1km² ga 110,3 kishi, Shahrisabz tumanida esa 173,5 kishini tashkil etadi (8-jadval).

Qishloq tumanlari orasida aholi soniga koʻra yuqorida nomlari qayd qilingan tumanlardan keyin uchinchi oʻrinda Koson tumani (2009-yilda 223,3 ming kishi) turadi. Tumanda aholining oʻrtacha zichligi har 1 km² ga 122,9 kishi boʻlib, viloyatda bu koʻrsatkich boʻyicha Kasbi (212,7 kishi), Qarshi (209,5 kishi), Shaqhrisabz (173,5 kishi) va Yakkabogʻ tumanlaridan keyingi beshinchi oʻrinda turadi. Aholi soniga koʻra Koson tumanidan keyingi oʻrinni aholisining soni 116,8 ming (2009- yil) boʻlgan Kitob tumani band etgan boʻlib, tuman aholisining qariyb 20%i tumanning maʼmuriy markazida – Kitob shahrida istiqomat qiladi. Qamashi va Yakkabogʻ tumanlarida mutanosib ravishda 207,8 ming va 207,4 ming kishi istiqomat qiladi. Ammo maydomiga koʻra Qamashi tumanidan (2,6 ming km²) ikki marta kichik boʻlgan Yakkabogʻ tumanida (1,3 ming km²) aholining oʻrtacha zichligi (har 1 km² ga 159,8 kishi) ikki baravar ziyod.

Qashqadaryo viloyatining maydoniga koʻra eng katta – Dehqonobod (4,0 ming km²), Mirishkor (4,0 ming km²) va Nison (4,0 ming km²) tumanlarining demografik saloxiyati nisbatan kichik. Dehqonobod tumanida 115,3 ming kishi, Mirishkor tumanida 92,0 ming kishi va Nishon tumanida 68,7 ming kishi yashaydi. Shunday qilib, viloyatning togʻli va choʻl hududlaridagi tumanlar eng kam aholi yashaydigan tumanlardir.

Viloyatda aholi salmogʻiga koʻra Gʻuzor (164,6 ming kishi), Kasbi (154,5 ming kishi), Qarshi (198,2 ming kishi) tumanlari oʻrtacha koʻrsatkichga ega. Ayni vaqtda Qarshi (0,9 ming km²) va Kasbi (0,7 ming km²) tumanlarining yer maydonining kichikligi sababli aholi zichligi viloyat darajasida eng yuqori koʻrsatkichga ega (tegishlicha 220,2 va 220,7 kishi 1 km² ga)⁴⁶.

⁴⁶ Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши (1989-2009 йй.). Монография. – Т.: «Fan va texnologiya», 2010. 58 б.

Umuman olganda, yuqori mintaq (Shahrisabz, Yakkabog` va Kitob tumanlari) ko`p jihatdan Respublikamizning aholisi zich voha va vodiylariga o`xshab ketadi. Ammo, ta`kidlash joizki, zichlik, qo`yi mintaqaning ayrim tumanlarida (Kasbi, Qarshi) ham ancha yuqori, ya'ni 190-200 kishiga teng.

Qashqadaryo viloyati miqyosida aholi zichligi Qarshi shahri qo'shib hisoblamaganda har 1 km² ga 93,4 kishiga to'g'ri keladi. O'z navbatida Qashqadaryo viloyati aholi zichligi bo'yicha Respublikada Farg'ona vodiysi, Toshkent va Samarqand viloyatlaridan keyingi o'rinda turadi.

2.2. Qashqadaryo viloyati madaniy hayoti hamda ta'lim va sport sohasining rivoji.

Mustaqilligimizning har bir yili Vatanimiz solnomasida tom ma'noda yorqin sahifa ochib, xalqimiz bunyodkorlik salohiyatining amaliy ifodasi, erkin va farovon hayotimiz ko'zgusi, g'urur va iftixorimiz timsoli sifatida muhrlanib qolmoqda.

Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq ta'lim-tarbiya ishlariga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilinib, maktablarni yangilash borasidagi ishlar tizimli ravishda amalga oshirildi. Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi qabul qilinishi esa maktab ta'limini har tomonlama rivojlantirish, qulay o'quv sharoitlari yaratishning yangi bosqichini boshlab berdi. Maktablarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, o'quvchilarga keng va teng sharoitlar yaratish, o'quv-tarbiya jarayoni sifatini yaxshilab borish, o'quv qurollari va darsliklar, kompyuter texnika va texnologiyalari bilan ta'minlash borasida bosqichma-bosqich ishlar amalga oshirildi.

Viloyatdagi universitet, institut, litsey, kollej va maktablar respublika iqtisodiyoti, agrar sohasi, fan, madaniyat, xizmat ko'rsatish kabi sohalarda ishlovchi kadrlarni tayyorlashga salmoqli hissa qo'shmoqdalar. Minglab qashqadaryoliklar respublikaning boshqa hududlari va markazlari aholisi kabi el-yurt ravnaqi uchun bel bog'lab xizmat qilmoqdalar⁴⁷.

Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 9 iyuldagi "2004 — 2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, viloyatda 114 ta yangi maktab

⁴⁷ Тиллаев Э.Р. Мустақиллик йилларида Қашқадарё маданий-маърифий муассасаларнинг фаолияти // Насафлик алломаларнинг жаҳон маданиятида туганган ўрни. Илмий-назарий конференция материаллари. — Қарши, 2008. 13 б.

qurilib, foydalanishga topshirilgan bo'lsa, 210 dan ziyod maktabning muhandislik infratuzilmasi kapital rekonstruksiya qilindi hamda bir qancha maktablar joriy ta'mirdan chiqarilib, mebel va o'quv-laboratoriya jihozlari bilan ta'minlandi. Umuman, Istiqlol yillarida 222 ta yangi maktab qurildi, 316 ta maktab kapital rekonstruksiya qilindi, 137 ta kollej va 7 ta akademik litsey barpo etildi⁴⁸.

Ta'lim sohasidagi milliy dasturlarni hayotga tatbiq etish boshlangandan buyon ko'plab akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, 4680 tadan ziyod umumta'lim maktablari yangitdan qurildi va kapital ta'mirlandi. Zamonaviy mebel, o'quv-laboratoriya uskunolari bilan jihozlandi. Ularda kompyuter sinflari va lingafon xonalari tashkil etildi. Eng muhimi, ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlarida akademik litsey va kollejlari uchun zamon talablariga javob beradigan yangi toifadagi o'qituvchilarni tayyorlash ishlari yo'lga qo'yildi. Bundan tashqari, har tomonlama jihozlangan o'quv yurtlarini barpo etish uchun o'tgan yillar mobaynida 5 mlrd. dollardan ortiq byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar yo'naltirilgan. Bunday xarajatlar hajmi mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibida 12 foizdan ortadi. Jahon tajribasida bu ko'rsatkich 3–5 foizdan oshmaydi⁴⁹. Bu sarflanayotgan mablag'lar mamlakat kelajagi bo'lmish yoshlarni tarbiyalashga, ularning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Viloyatda mustaqillikning dastlabki yillarida sog'liqni saqlash va xalq ta'limi sohalarida ma'lum qiyinchiliklar hamda muammolar mavjud edi. Bu sohalarga mahalliy byudjetning 50 foizidan ko'proq mablag'i ajratilgan bo'lsa-da, turli sabablarga ko'ra ularning muayyan qismi o'zlashtirilmagan. 2000 yil va undan keyingi yillarda butun O'zbekistonda bo'lgani kabi janubiy viloyatlarda ham katta ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lib, bu sohalarda ham ko'zga ko'rinadigan

⁴⁸ Ўзбекистон Республикаси иктисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва курсаткичлари ҳамда 2011-2015 йилларга мулжалланган прогнозлари. - Т.: Ўзбекистон, 2011. 95 б.

⁴⁹Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақиллик тараққиёт йўли. – Тошкент.2007. 26-27 б.

ishlar amalga oshirilgani dissertatsiyada, ya'ni mazkur bobning xulosalarida keltirildi.

Qashqadaryo viloyatida bolalar sportini rivojlantirish uchun sport inshootlari qurilishiga ham etarli e'tibor qaratildi va bu boradagi ishlar ibratlidir. Jumladan, "Mash'al" fuqarolar yig'ini hududida bolalar uchun sport maydonchasi hashar yo'li bilan qurildi. SHu singari Qarshi shahar Gulshan mahallasida xususiy tadbirkor O'tkir Erkaevning mablag'i hisobidan 7-kichik tumanda "Sho'rtan neftgaz" USHK hisobidan, Mirishkor tumani Jenov qishlog'ida Jenov shahar hokimligi hisobidan, Dehqonobod tumani Qarashina mahallasida "O'zbek neftgaz" xolding kompaniyasi hisobidan, Muborak tumani Xitoy qishlog'ida "Muborak neftgaz" USHK hisobidan sport inshootlari qurildi⁵⁰.

Yosh avlodda mustaqillikni mustahkamlash, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni qadrlash kabi his-tuyg'ularni shakllantirish ezgu maqsad ekani ma'lum. Bu maqsadlarga erishish uchun jamiyatning barcha qatlamlari, ayniqsa, ziyolilar mas'ul ekanlari ham aniq. Ayni shu maqsadga erishish uchun Qarshi shahrida Yoshlar markazi barpo etilgan, unda "Kamolot" YIH bo'limlari va ularning qoshida tuzilayotgan markazlar korporativ tizim orqali bog'lanadi. Bu erdagi axborot-tahlil guruhi 10 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarning muammolari bo'yicha tumanlar, qishloqlar miqyosida ma'lumotlar bazasini yaratgan. Markaz yoshlarni va yosh oilalarni ijtimoiy himoya qilishning barcha yo'nalishlari (bandlik, biznes bilan shug'ullanish, iste'mol va uy-joy qurish, ta'lim uchun kreditlar olish va h.k.), iqtidorli yoshlarning imkoniyatlarini yuzaga chiqarish (ilmiy – texnik ijodkorlik, san'at va adabiyot, gumanitar fanlar yo'nalishlari bo'yicha), tengdoshlari bilan ma'naviy-tarbiyaviy, tashkilotchilik ishlarni olib borish va boshqa ko'plab zamonaviy taraqqiyot masalalari bilan shug'ullanmoqda⁵¹.

⁵⁰ www.uza.uz

⁵¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақиллик тараққиёт йўли. – Тошкент.2007. 43-44 б.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 20-iyundagi «Respublikada aholini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida»gi 381-sonli qarorini bajarish maqsadida qishloq kutubxonalarining 389 tasi viloyat o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmasi ixtiyoriga o'tkazildi. Kutubxonalar yiriklashtirildi, natijada tizim bo'yicha 67 ta axborot-resurs markazi tashkil etildi. Xalq ta'limi bo'limlaridagi kutubxonalar 15 ta axborot-resurs markazlariga birlashtirildi.

Qashqadaryo viloyatida o'rta ta'lim maktablari 1118 ta, kasb-xunar kollejlari 136 ta, 7 ta akademik litsey va 2 ta oliy o'kuv yurti bor. Qarshi davlat universitetida turli yo'nalishlar bo'yicha bakalavr va magistrlar tayyorlanadi⁵².

Yosh avlodning zamonaviy bilimlarni egallab, ma'nan va jismonan sog'lom bo'lib o'sishiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yilgach, sport inshootlari soni ortdi. Birgina Qashqadaryo viloyati misolida oladigan bo'lsak, 2003-2013 yillarda jamg'arma mablag'lari hisobidan 154 ta zamonaviy sport inshooti va 14 ta bolalar musiqa va san'at maktabi, jami 168 ta ob'ekt qurildi, kapital rekonstruksiya qilindi va kapital ta'mirlandi.

Farzandlarimizning ma'nan etuk, barkamol bo'lib ulg'ayishida sportning o'rni bo'lakcha. Shu bois yoshlarni sportga jalb etish, chekka hududlarda ham zamonaviy sport majmualari barpo etish masalasi doimiy diqqat-e'tiborda turibdi. Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan Shahrisabz tumanidagi Chorshanbe, Fuzor tumanidagi Chanoq, Qamashi tumanidagi Chim, Koson tumanidagi Guvalak, Mirishkor tumanidagi Avazcho'l qishloqlarida, Yakkabog' tumanidagi Eski Yakkabog' qo'rg'onchasida zamonaviy tipdagi sport komplekslari hamda sport inshootlari qurilib, yosh avlod ixtiyoriga berilgani quvonarli hol, albatta. Bunday xayrli ishlar joriy yilda ham davom ettirilib, investitsiya dasturiga asosan, viloyat hokimligi yagona

⁵² Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. Т. 2014. 301 б.

buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi buyurtmachiligida 120 dan oshiq ob'ektda qurilish-ta'mirlash, rekonstruksiya ishlari bajarilmoqda.

Bunday sport inshootlarining qurilishi o'z natijasini bermasdan qolmaydi, albatta. Qarshilik yoshlar Osiyo va jahon sport maydonlarida o'zlarini ko'rsatib, mamlakatimiz sharafigini munosib himoya qilmoqda. Birgina 2006 yilning o'zida maktab o'quvchilarining «Umid nihollari» sport musobaqalarining Respublika final bosqichi, Ikkinchi respublika ayollar spartakiadasi, o'nga yaqin sport turlari bo'yicha respublika musobaqalari Qarshi shahrida bo'lib o'tdi⁵³.

Qashqadaryo viloyatida olib borilayotgan bunday keng ko'lamli ishlar sport sohasini rivojlantirishda muhim qadamlar tashlanganligini ko'rsatadi. Masalan, 1991 yilda viloyatda 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan 437 ming 580 nafar bolaning bor-yo'g'i 13 ming 643 nafari (3,1 foizi) sport bilan muntazam shug'ullangan bo'lsa, 2015 yilda sportga oshno tutinganlar 42,1 foizga, ular orasida sportchi maqomiga erishganlar esa 14,9 foizga etdi.

Yoshlar yurt istiqbolini belgilaydi. Ularni ona Vatanga muhabbat, mamlakatimizning milliy manfaatlarini muhofaza etishdek ulug' va olijanob maqsadlarga sadoqat, jasurlik va fidoyilik ruhida tarbiyalashda oila bilan bir qatorda, maktablarning ham muhim o'rnini bor. Tabiiyki, bu vazifalarni amalga oshirish uchun ta'lim muassasalarida yaratilgan sharoitlar ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda qabul qilinayotgan bir qator dasturlar ham mazkur dasturdan ko'zlangan maqsadlarni mantiqan davom ettirmoqda. Jumladan, investitsiya dasturlariga muvofiq har yili maktablarda keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda.

Buni birgina viloyat misolida oladigan bo'lsak, 2015 yilda 36 ta maktabda rekonstruksiya, 14 ta maktabda esa kapital ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda. Buning uchun jami 33 milliard 500 million so'mdan ortiq mablag'

⁵³ www.uza.uz

ajratilgan. Ayni paytda 30 milliard so‘mlikdan ortiq ish bajarildi va rekonstruksiya qilinayotgan 8 ta, kapital ta‘mirlanayotgan 12 ta maktab foydalanish uchun tayyor holatga keltirildi. Jumladan, G‘uzor tumanidagi 54-, 66-, Dehqonobod tumanidagi 66-, 71-, Qarshi tumanidagi 21-, Kasbi tumanidagi 37-, Shahrisabz tumanidagi 16-, Yakkabog‘ tumanidagi 36-maktablar rekonstruksiya ishlari yakunlandi⁵⁴.

Ilgari binoning u yoq-bu yog‘ini suvoq qilish-u, eskirib qolgan qismlarini olib tashlashni kapital ta‘mir deb tushunishardi. Mustaqillik yillarida bu talab butunlay o‘zgardi. Joriy yilda 14 ta maktabni kapital ta‘mirlash ishlariga qariyb 7 milliard 640 million so‘m mablag‘ ajratilganining o‘ziyoq buni yaqqol ko‘rsatib turibdi. YA’ni har bir maktabning kapital ta‘miri uchun o‘rta hisobda 500 million so‘mdan ortiq mablag‘ ajratilgan.

Shuningdek, bu yil viloyatda 4 ta bolalar musiqa va san‘at maktabini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirilyapti. Shahrisabz tumanidagi 2- va 16- hamda Qamashi tumanidagi 6-son musiqa va san‘at maktablari qurilayotgan bo‘lsa, Nishon tumanidagi 13-son musiqa va san‘at maktabi rekonstruksiya qilinmoqda. Ularda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlariga 10 milliard 250 million so‘mdan ortiq mablag‘ sarflanishi ko‘zda tutilgan.

Bir so‘z bilan aytganda, bu sarmoyalar kelajakka yo‘naltirilgan bo‘lib, yoshlarimizning har tomonlama barkamol voyaga etishini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatida o‘tib kelayotgan yosh avlod taqdirini o‘ylab katta ishlar amalga oshirilmoqda. Faqatgina 1999 yilning o‘zidayoq 724 ming kvadrat metr uy-joy, 105 ta maishiy xizmat ko‘rsatish inshootlari foydalanishga topshirildi⁵⁵.

⁵⁴ www.qashqadaryo.uz

⁵⁵ Каримов И.А. Ватан озодлиги, халқимнинг омонлиги, юртимнинг равнақи, ҳар бир оила фаровонлиги — мен учун олий саодат / Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт — пировард мақсадимиз. Т.8. — Тошкент: Ўзбекистон, 2000. — Б. 218.

Mustaqillik tufayli milliy qadriyatlarni qayta tiklangani tobora ko‘proq namoyon bo‘lmoqda. Bugun jamiyatning poydevori hisoblangan tizim-mahalla boshqaruvini yanada takomillashtirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Mahallaning mamlakat hayotidagi o‘rni va nufuzini oshirish borasida bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Ulardan biri O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 1992 yilda sentyabrda “Mahalla” xayriya jamg‘armasi tashkil etilganligidir. Xalqning milliy urf-odat va an‘analarini asrab-avaylab va boyitishga har tomonlama ko‘maklashish, kam ta‘minlangan oilalar, nogironlar, etimlar va yolg‘iz qariyalarga insonparvarlik hamda mehr-shafqat bilan munosabatda bo‘lish g‘oyalarini targ‘ib qilish, ularga moddiy va ma‘naviy yordam ko‘rsatish, bozor iqtisodiyoti sharoitida mahallalarni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlantirishga ko‘maklashish mazkur jamg‘armaning eng asosiy vazifalaridir. Jamg‘arma bu vazifalarni muvaffaqiyatli ado etib, yurt aholisining turmushini yaxshilashga xizmat qilmoqda. 1993 yil sentyabrda O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari to‘g‘risida” gi qonuni qabul qilindi. 1999 yil aprelda mazkur qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Unga muvofiq fuqarolar yig‘ini raisi 2,5 yil muddatga saylanadigan bo‘ldi.

2007 yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra Qashqadaryo viloyatida 437 ta mahalla, 151 ta qishloq fuqarolar yig‘ini mavjud⁵⁶. Viloyatda mahalla ahlini, ayniqsa, yoshlarni milliy g‘urur, istiqloлга sadoqat ruhida tarbiyalash, kasb-hunarga yo‘naltirish, qiziqtirish, huquqiy-axloqiy savodxonligini oshirish, ijtimoiy - siyosiy barqarorlikni ta‘minlash, shuningdek, hozirgi kunda eng dolzarb masalalardan biri - yoshlarning sportga bo‘lgan qiziqishini jonlantirish singari tadbirlar olib borilmoqda. Hozirgi murakkab dunyoning azaliy va abadiy masalasi, har bir davrning dolzarb muammolariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina ma‘naviyat olami yangicha ma‘no-mazmun bilan

⁵⁶ Қашқадарё вилояти истиқлол йилларида / Муаллифлар гуруҳи раҳбари А. Эркаев. – Тошкент: Маънавият, 2007. – Б. 21.

boyib boradi. O‘zbekiston Prezidenti ta’biri bilan aytganda, “Har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, ma’naviyatning shakllanishiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi”⁵⁷. Demak, mamlakat fuqarolarining ma’naviy-ma’rifiy shakllanishida joylardagi ma’naviy-ma’rifiy muassasalar muhim o‘rin tutadi.

Qashqadaryo viloyatida ham ma’naviy hayot rivojiga ham katta e’tibor berilmoqda. Qarshi shahrida O‘lkashunoslik muzeyi keng va zamonaviy yangi binoga ko‘chirildi. Mavjud teatrlar yoniga teatr studiyalari qo‘shildi. Viloyatda “O‘zbeknavo”, “O‘zbekraqs” respublika ijodiy uyushmalarining bo‘limlari, rassomlar uyushmasi tashkil etildi va turli ko‘rgazmalar viloyat ahlining madaniy hayotini boyitmoqda.

Bugun bozor munosabatlari va milliy qadriyatlarga asoslangan jamiyatda yashashga qobiliyatli yoshlarni tarbiyalash lozim. Bu yo‘nalishda eng avvalo, tarixiy xotirani tiklash, davlatchilik tarixini o‘rganish, o‘qitish; o‘zbek xalqining etnik tarixini tadqiq etish, tarkibini bilish; ajdodlarning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini targ‘ib etish zarur. Shu vazifa va maqsadlar sari intilib, viloyatda yashab ijod qilgan alloma va mutafakkirlarning hayoti hamda ilmiy merosini o‘rganish, ko‘hna Qarshi va doim navqiron bo‘lgan SHahrisabz shaharlarining yubileylarini o‘tkazish kabi tadbirlar viloyatning madaniy-ma’rifiy hayotida katta voqea bo‘ldi. Bu bayramlar, ilmiy anjuman va ilmiy izlanishlar natijasida o‘zbek xalqining jahon tarixidagi o‘rni xolislik bilan yoritib berilmoqda. Mazkur dolzarb va istiqbolli ilmiy yo‘nalishlarda Qashqadaryo ziyolilari, ijodkorlarining o‘rni beqiyos. Ular madaniyatlararo muloqotga bag‘ishlangan o‘ziga xos, janubiy viloyatlarga mos faoliyatini muayyan etnos madaniyatini o‘rganishga xizmat qiladigan klublar tashkil etsa, amaliy tadbirlar o‘tkazsa, milliy yotsirash hollariga barham berilib, turli madaniyatlarning o‘zaro hamjihatligiga hissa qo‘shgan bo‘lar edi. Qarshi

⁵⁷ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 41.

jahonning qadimiy shaharlaridan biridir. U dunyo tarixi va madaniyatida alohida o‘rin tutadi. Bu haqiqat Qarshi shahrining 2700 yilligi tantanalarida ishtirok etish haqida qaror qabul qilgan YUNESKO Bosh konferensiyasining 32-sessiyasida qayd etildi.

Bu qutlug‘ sana munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov maxsus qarorga imzo chekdi. Davlatimiz rahbarining g‘amxo‘rligi bilan qadimiy Qarshi shahri yanada yasharib ketdi. Bu erda tarixiy yodgorliklarni ta‘mirlash va tiklash, Qarshining tarixiy-me‘moriy qiyofasini saqlab qolish, uni rivojlangan zamonaviy shaharga aylantirishga katta e‘tibor berilmoqda.

Keyingi yillarda bu yerda ko‘plab me‘moriy yodgorliklar, jumladan, o‘n beshinchi asrda qurilgan Ko‘kgumbaz, Xoja Ubayd Jarroh masjidlari, Qarshi ko‘prigi, Abdulaziz, Bekmir madrasalari kabi ko‘plab me‘moriy obidalar qayta ta‘mirlandi⁵⁸. Mintaqada katta rekreatsiya va turistik resurslarning mavjudligi ushbu sohalar rivojlanishining muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Xozirgi vaqtda 2750 yillik tarixga ega bo‘lgan Shahrisabz, 2700 yilga to‘lgan Qarshi shahrining xalqaro va mahalliy turizmni rivojlantirishda ahamiyati katta. Kitob kenglik stansiyasi, Xazrati Bashir, Sulton Mirxaydar, Isoq ota, Langar ota kabi ziyoratgoh va qadamjolar ham ilmiy va diniy turizmni rivojlantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Viloyatning bu va boshqa joylarida turistik industriya va turistik infratuzilmani zamonaviy shakllantirishga e‘tibor qaratilmokda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil ijtimoiy siyosat asosida Qarshi shahri aholisining ijtimoiy ehtiyojlariga byudjet mablag‘larining 40 foizidan ortig‘i yo‘naltirilmoqda. Bunga ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, fan sohalariga, onalar va bolalar, keksa, nogiron va kam ta‘minlangan toifalarga yo‘naltirilayotgan xarajatlar kiradi.

⁵⁸ www.uza.uz

Qashqadaryo viloyatida aholini tabiiy gaz va toza ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Agar 1991 yilda aholini tabiiy gaz bilan ta'minlash darajasi viloyatda 25,4 foizni, toza ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi 53 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2004 yilga kelib bu ko'rsatkichlar mos ravishda 72,9 va 80,8 foizga etdi.

Bugun shaharda 556 ta yirik korxona, 44 ta hissadorlik jamiyati, 761 ta maishiy xizmat ko'rsatish, ko'plab savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Shaharda 3 ta oliy o'quv yurti⁵⁹, 3 ta zamonaviy akademik litsey, 16 ta kasb-hunar kolleji mavjud bo'lib, 33 nafar fan doktori, 300 dan ortiq fan nomzodi o'quvchi va talabalarga saboq bermoqda. Aholiga 52 ta umumta'lim maktabi, 2 ta muzey, 2 ta istirohat bog'i, 4 ta teatr, 1 ta filarmoniya, 13 ta ommaviy kutubxona xizmat ko'rsatmoqda. Tibbiy xizmat ko'rsatish sifatiga alohida e'tibor berilmoqda. Shaharda Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazining 270 o'rinli filiali, «Ona va bola skriningi» markazi, Akusherlik va ginekologiya ilmiy-tekshirish institutining filiali, Respublika «Salomatlik» instituti filiali kabi 22 ta shifoxona faoliyat ko'rsatmoqda.

Keyingi yillarda Qarshi shahrida 30 ming kvadrat metrdan ortiq uy-joy, Olimpiya zahiralari sport kolleji, 20 ming o'rinli zamonaviy stadion, 1200 o'rinli sport manеji, yopiq suv basseyni qurib foydalanishga topshirildi.

Qarshi shahrida 2 ta telestudiya, 2 ta radiostansiya, 15 ta gazeta, 1 ta jurnal tahririyati, Toshkent Davlat axborot texnologiyalari universitetining filiali, 2 ta axborot texnologiyalari kolleji faoliyat yuritmoqda⁶⁰. Qarshi Davlat universitetida, Qarshi muhandislik iqtisodiyot institutida oliy o'quv yurtlari bilan masofadan o'qitish texnologiyalari joriy etilgan, ba'zi bir oliy o'quv yurtlarining kutubxonalari bilan elektron aloqa o'rnatilgan. Viloyat o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti ham masofadan o'qitish imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, ko'plab maktablar internet

⁵⁹ Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасалари. Маълумотнома 2-нашри. Академик С.С.Гуломов таҳрири остида. Т, 2003. 16 б.

⁶⁰ www.qashqadaryo.uz

tarmog'iga ulangan bo'lib, o'quvchilar bimalol dunyo yangiliklaridan xabardor bo'lishi, o'z veb-saytlarini ochib, chet ellik tengdoshlari bilan aloqa o'rnatishi mumkin. Shaharda o'nlab internet-kafelar ishlab turibdi.

Xulosa

“Qashqadaryoning boyligi, uning kelajagi haqida, ertangi iqtisodiy qudrati haqida juda katta havas bilan orzu-umidlar qilganimiz bugungidek yodimda”⁶¹ – degan edi prezidentimiz Islom Karimov. Haqiqatdan ham bugun mustaqil O‘zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, agrar sohasi va madaniy hayotida Qashqadaryo viloyati katta rol o‘ynaydi. Qashqadaryo viloyati istiqlol yillarida respublikaning boshqa o‘lkalari kabi ulkan ijobiy o‘zgarishlar taraqqiyotni boshdan kechirmoqda. Mazkur yillarda respublikaning janubiy mintaqasidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish odimlarini o‘rganishi, ma’naviy sohani yangilash konsepsiyasining ishlab chiqilishi va madaniy siyosat maqsad va vazifalarining tahlili quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi:

- birinchidan, hudud aholisi istiqlolning dastlabki yillarida sobiq ittifoq davrida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga bog‘lanib qolgan edi;
- ikkinchidan, viloyatda islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va turli mulkchilik shakllarining barpo etilishi boshqa viloyatlardagi jarayonlarga qaraganda ancha qiyinroq kechdi;
- uchinchidan, islohotlar qishloq xo‘jaligida ham jadallik bilan olib borildi va agrar sohada fermer xo‘jaliklari tashkil etildi, ularga ishlab chiqargan boshlab mahsulotini ichki va tashqi bozorlarda sotish, erkin iqtisodiy hamda moliyaviy faoliyat olib borish huquqlari berildi;
- to‘rtinchidan, respublika miqyosida viloyat sanoat ishlab chiqarishining o‘rni hamda umumiy milliy daromaddagi ulushi ancha o‘sdi. Qishloq xo‘jaligi qatorida sanoatda qo‘shma korxonalar soni ko‘payib bormoqda. Sanoatning ba’zi tarmoqlarida xususiy sektorning roli oshmoqda. Bu yo‘nalishda gaz va neft razvedkasi, ularni ishlab chiqarish va qayta ishlash sohalari istiqbolli sanaladi.

⁶¹ I.Karimov. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. Шўртан газ-кимё мажмуи очилишига бағ’ишланган тантанали маросимда сўзланган нутқ. Том 10. Т, 2002.

Qashqadaryo viloyatining muammolaridan biri – ishchi kuchlarining migratsiyasi, ayollarning bandligi (ular asosan qishloq xo‘jaligida va engil sanoatda mehnat qilishadi), yoshlarning kasbiy tayyorgarligi va ularni ish bilan ta‘minlashdir. Bu borada ham muammolar mavjudligiga qaramasdan ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Mintaqada aholi bandligi muammosi respublikada eng jiddiy tus olganligining sababi ish o‘rinlarining kamligidir. Shuni hisobga olgan holda bozor munosabatlariga xos o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, kasblarni o‘zgartirish, raqobatchilik, yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlarga ish hamda o‘qishga yuborish, turli qo‘shimcha daromad manbalarini yaratish, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va h.k. Ayni paytda, xotin-qizlar, ko‘p bolali ayollarni, yordamga muhtoj nogironlar va mehnat qobiliyati cheklangan boshqa shaxslarni turli korxonalarga, kksanachilikka jalb etish muhim iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda.

Viloyatda tizimdagi bo‘yicha ko‘pgina ishlar amalga oshirildi. YUzlab maktablar ta‘mirdan chiqarildi, o‘nlab yangi, zamonaviy maktablar, litsey va kollejlari qurildi. Lekin ular pedagogik kadrlar, moddiy-texnikaviy baza, kitob va ta‘lim uchun zarur asbob-uskunalar bilan etarlicha ta‘minlanmoqda. Maorif va madaniyat sohalaridagi islohotlarning ham izchil amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

– mustaqillikning ma‘naviy va ruhiy asoslarini mustahkamlash; istiqlolning abadiyligi, uni saqlash xalqning muqaddas burchi ekanini asoslash, Vatan, el-yurtga sadoqatli va kamolotga etgan yosh avlodlarni tarbiyalash, ozod va obod vatan uchun mehnat qilish g‘oyalarini targ‘ib va tashviq etish doimiy vazifa bo‘lib kelmoqda;

– janubiy viloyatlardagi aholi bandligi muammosini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, ya‘ni xom ashyo (paxta, don mahsulotlari, meva va poliz mahsulotlari)ni qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni keng yo‘lga qo‘yish bilan hal etilmoqda.

Dissertatsiya ishi natijalaridan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

- sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqarishda raqobat muhitini yaratish, soliq yukini engillashtirish, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovini kamaytirib borish darkor;

- shaxsiy, yordamchi va dehqon xo'jaliklarida qoramol boqish bilan shug'ullanadiganlarning sonini ko'paytirish, buning uchun maqsadli, imtiyozli kreditlar berish, veterinariya va zootexnika xizmatini tashkil etish, ozuqa bilan ta'minlash tartibini belgilash zarur;

- fermerlar faoliyati uchun erkinliklarni kengaytirish va bozor munosabatlariga o'tish jarayonida qabul qilingan qonunlarning amalda joriy qilinishini ta'minlashga e'tibor qaratish kerak;

- viloyatlar OAV, radio va televideniesida ham erkin ijodiy muhitni shakllantirish, ularni jur'atli, izlanuvchan kadrlar bilan ta'minlashga e'tibor berish darkor. Ayniqsa, shahar va tuman markazlari hamda qishloqlardagi hayotni yoritishga ko'proq e'tibor berish foydadan xoli bo'lmaydi;

- ma'rifiy va madaniy ishlarga respublikada mashhur bo'lgan, poytaxt va viloyat markazlarida faoliyat ko'rsatayotgan san'atkorlar, adib va shoirlarni jalb etish kerak. Janubiy viloyatlar boy tarixiy merosga ega mintaqalar bo'lgani uchun ularning tarixini keng omma orasida targ'ib va tashviq qilish, jamiyatda bag'rikenglik tamoyillari asosiga qurilgan munosabatlarning mohiyatini amaliy ravishda yuzaga chiqarish zarur.

- Madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatini yanada rivojlantirish, ularga yangi texnologiyalar va uslublarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Kelajakda mintaqa iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va modernizatsiyalash yordamida viloyat iqtisodining rivojlanishini ta'minlash muhim hisoblanadi. Bu borada qurilish industriyasini ham jadal rivojlantirish

maqsadga muvofiq. Yaqin kelajakda G'uzor va boshqa shaharlarda barpo qilinayotgan turli zavodlar mintaqa qurilish sanoatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Qashqadaryoda yoqilg'i, mineral xom ashyo resurslaridan tashqari paxta, meva, uzum, dorivor o'tlarni qayta ishlash, rekreatsiya va turizmni rivojlantirish imkoniyatlari ham katta. Hozircha mintaqada yetishtirilgan paxta xom ashyosiga nisbatan uni qayta ishlash respublika ko'rsatkichidan (taxminan 35 %) ancha past, meva-konserva, vino sanoatining rivojlanishi ham viloyat iqtisodiyotini mustahkamlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Каримов И.А. Қишлоқ хўжалиги тараққиёти – тўкин ҳаёт манбаи / Хавфсизлик ва барқарорлик тараққиёт йўлида. Т.6. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. Toshkent, "O'zbekiston" 2007.
3. Каримов И.А. Ватан озодлиги, халқимнинг омонлиги, юртимнинг равнақи, ҳар бир оила фаровонлиги – мен учун олий саодат. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000.
4. I.Karimov. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. Шўртан газ-кимё мажмуи очилишига бағ'ишланган тантанали маросимда сўзланган нутқ. Том 10. Т, 2002.
5. Abdullayev S.I. Axmedov R Qashqadaryo viloyatining iqlim xususiyatlari. - Ilm-fan va taraqqiyot. Qarshi, 2005.
6. Abdullayev S.I. va b. Qashqadaryo viloyatida yer resurslaridan foydalanish va muhofaza qilish|| O'rta Osiyo bo'yi regionini ekologik muammolari (konferensiya materiallari). Buxoro, 1995.
7. Abdullayev S.I. Karimova U.Sh. Qashqadaryo shaharlari. "Nasaf ziyosi" jurnali. 2005 y. №4(5)
8. Асанов Г., Набихонов М., Сафаров И. Ўзбекистоннинг иктисодий ва ижтимоий жугрофияси. - Т.: Ўкитувчи, 1994.
9. Ашуров Ф. Инсон, сиёсат, бошқарув. – Тошкент, 1995.
10. Bekmamadova G.A. Yunusov G`.X. Qashqadaryo viloyati suv resurslari va ulardan samarali foydalanish. – Geografiya: tarix, nazariya, metodlar, amaliyot. Konferensiya materiallari. Т., 2010.
11. Berdiqulova M.T. Qashqadaryo viloyati shahar aholi manzilgohlarining rivojlanish xususiyatlari. Zamonaviy geografiyaning muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Qarshi. 2010.

12. Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар. – Тошкент: Шарқ, 1999.
13. Баратов П. «Ўзбекистон табиий географияси» Т. «Ўқитувчи» 1996.
14. Солиев А., Назаров М., Қурбонов Ш. Ўзбекистон ҳудудлари ижтимоий-иқтисодий ривожланиши. – Т.: «MUMTOZ SO'Z», 2010.
15. Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. Т. 2014.
16. Солиев А., Назаров М. Ўзбекистон қишлоқлари (Қишлоқ жойлар географияси). – Т.: «Fan va texnologiya», 2009.
17. Domlajonov Q.A va b. Qashqadaryo oqimining antropogen omillar ta'sirida o'zgarishi|| O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti. 21-jild. Т., 2002.
18. Egamova D.Tojiyeva Z.Saidova Z. O'zbekistonning janubiy hududlaridagi demografik holat (Qashqadaryo viloyati misolida) || || Geografiya va qadriyatlar. Т.,2001.
19. Хомитов К.З. Малакали аграр меҳнат бозорининг шаклланиши (Қашқадарё вилояти мисолида). Иқт. фан. ном. дисс. – Тошкент, 1999.
20. Исмоилов А. Қашқадарё энергетика тизими халқаси. – Тошкент: Туркистон-полиграф, 2006.
21. Islomov A. Shahrisabz guruhi rayonlari aholisi. O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti. 21-jild. - Т., 2000.
22. Murodova D.S. Qashqadaryo viloyatida aholi o'sishining xususiyatlari. “Hozirgi zamon geografiyasi: Nazariya va amaliyot”. Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallari - Т., 2006.
23. Murodova D.S. Qashqadaryo viloyatida aholi tabiiy ko'payishining xususiyatlari. Geografiya fanining nazariy va amaliy masalalari. Т., 2007.
24. Nazarov S.H. Qashqadaryo viloyati - kelajakka intilayotgan mintaq. “O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi”, 2003 №7.
25. Набиев Э., Қаюмов А. Ўзбекистоннинг иқтисодий салоҳияти. – Т.: Университет, 2000.
26. Одилов Б. Истиклолим – ифтихорим. – Қарши: Насаф, 2007.

27. Ортиқова Ф. Шўртаним – сарбаланд кўргоним. – Қарши: Насаф, 2007.
28. Очилов А. Шаҳрим юлдузлари. – Қарши: Насаф, 2006.
29. Qashqadaryo viloyati geografiyasi. Geografiya o'qituvchilari uchun qo'llanma. Qarshi, 1993.
30. Қашқадарё вилояти истиқлол йилларида / Муаллифлар гуруҳи раҳбари А. Эркаев. – Тошкент: Маънавият, 2007. – Б. 21.
31. Курбонов Ш. Б. Кичик ҳудудлар ижтимоий-иқтисодий географияси. - Т.: “MUMTOZ SO'Z”, 2013
32. Qurbonov P.R. Kichik hududlarda urbanizatsiyaning rivojlanishi (Janubiy O'zbekiston qishloq tumanlari misolida). O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti. 37-jild. T., 2011.
33. Қодиров Б., Рулинов Ж. Мустақиллик ва ижтимоий тараққиёт. – Тошкент, 1998.
34. Тилаев Э.Р. Мустақиллик йилларида Қашқадарё маданий-маърифий муассасаларнинг фаолияти // Насафлик алломаларнинг жаҳон маданиятида тутган ўрни. Илмий-назарий конференция материаллари. – Қарши, 2008.
35. Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши (1989-2009 йй.). Монография. – Т.: «Fan va texnologiya», 2010.
36. Ўроқова Н.С. Ўзбекистонда мустақиллик даврида саноат соҳасидаги ислохотлар ва ўзгаришлар жараёни (жанубий вилоятлар мисолида). Тарих.фан.ном. дисс. – Тошкент: ЎЗМУ, 2004.
37. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2000.
38. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва курсаткичлари ҳамда 2011-2015 йилларга мулжалланган прогнозлари. - Т.: Ўзбекистон, 2011.
39. Zamonaviy geografiyaning muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Qarshi. 2010.

40. “O‘zbekiston Respublikasining yer fondi” – T.: O‘zR yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi, 2011.
41. O‘zbekiston Respublikasi ensiklopediyasi. Qomuslar bosh tahririyati. T.1997.
42. Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасалари. Маълумотнома 2-нашри. Академик С.С.Гуломов таҳрири остида. Т, 2003.
43. www.qashstat.uz
44. www.uza.uz
45. www.qashqadaryo.uz